

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH**

**APPLIKATIV MODEL VA DERIVATSION JARAYON**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора филологических  
наук (DSc)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philological sciences (DSc)**

**Samandarov Rustam Do‘syorovich**

Applikativ model va derivatsion jarayon ..... 3

**Самандаров Рустам Дусёрович**

Аппликативная модель и деривационный процесс ..... 31

**Samandarov Rustam Dusyorovich**

Applicative model and derivational process ..... 61

**E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 66

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI**

**SAMANDAROV RUSTAM DO‘SYOROVICH**

**APPLIKATIV MODEL VA DERIVATSION JARAYON**

**10.00.11 – Til nazariyasi. Amaliy va kompyuter lingvistikasi**

**FILOLOGIYA fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3DSc/Fil672 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Farg'ona davlat universitetning veb-sahifasi (www.fdu.uz) hamda «Ziyonet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Turniyazova Shahnoza Nigmatovna  
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Roziqova Gulbahor Zaylobiddinovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Raupova Laylo Rahimovna  
filologiya fanlari doktori, professor

Ziyayev Avazjon Ixtiyorovich  
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat chet tillar instituti


Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.Fil.05.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « 5 » aprel soat 8<sup>00</sup> dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100151, Farg'ona shahri, B.Marg'inoniy ko'chasi 105-uy. Tel.: (+99873) 244-57-82; e-mail: fardu\_info@mail.ru.


Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (479 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100151, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi 19-uy. Tel.: (+99873) 244-44-94.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 17 » mart kuni tarqatildi.  
(2025-yil « 17 » mart dagi 14 - raqamli reestr bayonnomasi)



  
S.M. Muminov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, filologiya fanlari doktori, professor

  
M.T. Zokirov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filologiya fanlari nomzodi,  
professor

  
M.X. Hakimov  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya  
fanlari doktori, professor

## KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligida yangi ilmiy paradigmalarning yuzaga kelishi nutq va uning sotsial xoslanishiga oid masalalar tadqiqiga tizimli yondashish zaruratini belgiladi. Tilshunoslik sohasi o'zining yangi sifat bosqichiga ko'tarilib, natijada tilning fonetik, leksik, grammatik, sistem-struktur sathlari hamda til va nutq masalalarining lingvistik asoslari yaratildi. Til tabiatini anglash va uning amaliy voqelanishi bilan bog'liq muammolar tilshunoslikning pragmalingvistika, sotsiolingvistika, kognitiv lingvistika, psixolingvistika, neyrolingvistika kabi sohalari kesishgan nuqtasida o'rganildi. Til ilmida pragmatik mazmun xususiyatlarini tahlil etish orqali amaliy masalalarning yechimini topishga keng e'tibor qaratildi.

Dunyo tilshunosligida derivatologiya masalalariga, xususan, til birliklarining sistem-struktur hamda derivatsion xususiyatlariga oid ilmiy-nazariy tadqiqotlar, sintaktik qurilmalarning kognitiv-pragmatik xususiyatlari nazariyasiga doir lingvistik adabiyotlar yaratildiki, bu ilmiy manbalar bugungi kun tilshunosligida til – nutq munosabati masalalari va unda inson omili muammolarini yechishda fundamental asos bo'lib xizmat qilmoqda. Shuningdek, derivatsiya atamasining lug'aviy ma'nosi, ilmiy istilohi, nazariy jihatlarini tavsiflash, mazkur termin ostida operator, operand, derivat atamalarining qamrab olinishi, leksik, sintaktik, semantik derivatsiya tamoyillarining universal tabiati masalalari ham keng o'rganilmoqda.

Bugungi kun o'zbek tilshunosligida sistem-struktur lingvistika muammolari doirasida transformatsion model, bevosita ishtirokchilar modeli, shuningdek, distributiv model asosida ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsa-da, transformatsion model singari yaratuvchanlik hamda sinergetik kuchga ega bo'lgan aplikativ model va uning lingvistik imkoniyatlarini tavsiflovchi tadqiqotlarni yaratish muhim masala hisoblanadi. Globallashuv jarayonida ilm-fan sohasida alohida mavqega ega bo'lgan tilshunoslik fani bilan bog'liq jiddiy tadqiqotlarni olib borish masalasi davlat siyosati darajasida turganligi quvonarli holdir. “Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki muqaddas insoniy burchimizdir”<sup>1</sup>. Shu bois sintaktik qurilmalar shakli kengayishi va ularning derivatsion xususiyatlari masalasi tadqiqida aplikativ modeldan foydalanish, shuningdek, aplikativ modelning transformatsion model bilan kesishishi va shu tarzda til sistemasi birliklarining nutqqa ko'chirilishini ta'minlovchi mexanizm maqomini olishini tadqiq etish tilshunoslik fanining rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2016-yil 13-maydagi PF-4797-son “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi PF-6017-son “O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid

---

<sup>1</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019-yil 22-oktabr. – № 218. – B. 1-4.

davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqishga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, shuningdek, 2020-yil 31-dekabrda PQ-4939-son “Malakalarni baholash tizimini tubdan takomillashtirish va mehnat bozorini malakali kadrlar bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 6-iyuldagi PF-165-son “O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son “Pedagogik ta’lim sifatini oshirish va pedagoglarni tayyorlaydigan oliy o‘quv yurtlari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining 1. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

**Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi**<sup>2</sup>. Sintaktik qurilmalar shaklining applikativ model asosida kengayishi masalalari bo‘yicha dunyo mamlakatlarining, jumladan, University of Amsterdam, Leiden University (Niderlandiya), University Pennsylvania, University of Columbia, University of California, Harvard University (AQSH), Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti, Moskva sharqshunoslik instituti, Rostov universiteti, Moskva shahar pedagogika instituti (Rossiya), University of Leipzig, The Humboldt University (Germaniya), Oxford University Language Centre (Buyuk Britaniya), University of Geneva (Shveysariya), Sorbonne College de France (Fransiya), University of Tokio (Yaponiya), Uniwersytet Warszawski (Polsha), shuningdek, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti, O‘zFA, O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti (O‘zbekiston)da bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Dissertatsiya mavzusi yo‘nalishida quyidagi ilmiy natijalar olingan: sintaktik qurilmalarning formal-struktur xususiyatlari yoritilgan va ular transformatsion jihatdan tahlil qilingan (Harvard University, AQSH); yaratuvchan grammatikaning shakllanishi jihatlari o‘rganilgan (Moskva davlat universiteti, Rossiya); sintaktik derivatsiya va transformatsiya masalalari elementar gap doirasida tadqiq qilingan (Univerzita Karlova, Chexiya); abzasning lingvistik maqomi asoslangan (University of Tokio, Yaponiya); gap sintaktik shakli kengayishi masalasi formal-funksional

---

<sup>2</sup> Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi [google.scholar.com](https://www.google.com/scholar); [www.bu.edu](http://www.bu.edu); <https://studfile.net/>; <https://vk.com/topic>; <https://moluch.ru/conf/phil/archive>; <https://www.dissercat.com/>; <https://cyberleninka.ru/>; [www.education.ua/universities](http://www.education.ua/universities) va boshqa manbalar asosida amalga oshirildi.

nuqtayi nazardan o'rganilgan (Samarqand davlat universiteti, Samarqand davlat chet tillar instituti).

Dunyo tilshunosligida til sistemasining amalda qo'llanilishi, tilshunoslik muammolari yechimiga sistem-struktur va kognitiv-pragmatik jihatdan yondashish masalalari bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda: sintaktik qurilmalarning sistem-struktur muammolarida til sistemasi birliklarining nutqqa ko'chirilishi asoslarini tavsiflash; katta va kichik sintaktik qurilmalarning o'ziga xos mushtarak va farqli jihatlarini ochib berish; abzas komponentlarini e'tiborga olgan holda uni segmentlanish xususiyatlarini asoslash; sintaktik qurilmalarning lingvistik xususiyatlarini yoritishda inson omili rolini kognitiv-pragmatik nuqtayi nazardan ochib berish; murakkab sintaktik qurilmalar komponentlarining sintaktik bog'lanishini derivatsion aspektida tadqiq etish.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** "Derivatologiya" atamasi 1981-yilda Perm universitetida "Derivatologiyaning nazariy muammolari" deb nomlangan nufuzli ilmiy konferensiyada qabul qilindi. Biroq bundan oldin hosila struktura masalasi polyak tilshunosi Yeji Kurilovich tomonidan 1936-yilda "Derivation lexicale et derivation syntaxique"<sup>3</sup> deb nomlangan tadqiqot ishida yoritiladi. Ammo umumiy tilshunoslikda bu asarga ko'p yillar davomida jiddiy ahamiyat berilmadi. Yeji Kurilovichning mazkur ishi 1962-yilda "Деривация лексическая и деривация синтаксическая" nomi bilan rus tiliga tarjima qilindi va rus tilshunosligida bu yo'nalishda ma'lum darajada burilish yasaldi. Sohaga oid juda ko'p ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, L.N.Murzin, O.M.Sharina, S.D.Katsnelson, Y.S.Kubryakova, O.I.Moskalskaya, I.P.Raspopov, T.V.Markelova, G.V.Makovich, A.G.Anisimova, I.N.Fomina, Y.V.Trubnikova<sup>4</sup> va boshqalar. Mavzuga doir tadqiqotlarning salmoqli qismini chet ellik olimlarning ishlari ham tashkil etadi. Bulardan Albrecht Jorn, Khalid Hassan, L.Bloomfield, L.Bloomfield, Z.Harris<sup>5</sup> kabi olimlarning tadqiqotlari struktur sintaksisga bag'ishlangan.

---

<sup>3</sup> Kurilowicz J. Derivation lexicale et derivation syntaxique. – BSL, 1936.

<sup>4</sup> Мурзин Л.Н., Шарина О.М. Деривация структур сложноподчиненных предложений в русском языке. – Пермь, 1971; Мурзин Л.Н. Синтаксическая деривация (анализ производных предложений русского языка). – Пермь, 1974; Мурзин Л.Н. Синтаксическая деривация (на материале производных предложений русского языка). Докторlik dissertatsiyasi. – Л., 1976; Мурзин Л.Н. О деривационных механизмах текст образования // Теоретические аспекты деривации. – Пермь, 1982; Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. – Пермь, 1984.; Кацнельсон С.Д. Порождающая грамматика и принцип деривации// Проблемы языкознания. – М., 1967. Маркелова Т.В. Системный подход в русистике. Деривационная типология оценочного значения // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. II Международного конгр. – М., 2004.; Кубрякова Е.С. Деривация, транспозиция, конверсия//ВЯ, 1974, № 5.; Москальская О.И. Синтаксическая парадигматика и синтаксическая деривация//Проблемы общего и романо-германского языкознания. – М., 1978.; Распопов И.П., Сычева С. Н. Синтаксическая деривация и синтаксическая синонимия//НДВШ, ФН, 1974, № 3.; Маркелова Т.В. Системный подход в русистике. Деривационная типология оценочного значения // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. II Международного конгр. – М., 2004; Макович Г.В. Деривационная парадигма предложений, организованных описательными предикатами // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. II Международного конгр. – М., 2004.; Анисимова А.Г., Фомина И.Н. Проблемы семантической деривации и образования политических терминов // ФН, 2006, № 6.; Трубникова Ю.В. Вопросы деривационного функционирования текста // Русский язык: исторические судьбы и современность. Матер. III Международ. конгресса. – М., 2007.

<sup>5</sup> Europäischer Strukturalismus. Ein forschungsgeschichtlicher Überblick. Tübingen: Francke. 1988.; Khalid Hassan. Syntactic Aspects of Poetry "A Pragmatic Perspective" || International Journal of Business and Social Science. Vol.2.6. 2006 Print.; Bloomfield Leonard. 1933. Language. New York: Henry Holt & Co.; Harris, Zellig S. 1941.

Ta'kidlash joizki, mazkur masala bilan bog'liq izlanishlarni rus, polyak, nemis, AQSH olimlari bilan bir qatorda yapon tadqiqotchilarining ishlarida ham kuzatish mumkin. Jumladan, Naruse Takeshi, Xojjo Kazuaki, Xanaoka Naomi<sup>6</sup> kabi olimlar sintaksisning o'ziga xos xususiyatlari va abzas muammolarini tadqiq etishgan.

O'zbek tilshunosligida ham struktur tilshunoslik muammolariga bag'ishlangan qator monografik ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, N.Turniyozov, M.Abdupattoyev, M.Qurbonova, G'.X.Yaxshiboyev<sup>7</sup>larning ilmiy tadqiqotlarida sintaktik derivatsiya masalalarining ilmiy-nazariy asoslari yaratildi. Biroq, ushbu ishlarda struktur-sintaksis hamda generativ grammatikaga oid muhim ma'lumotlar mavjud bo'lsa-da, aplikativ modelning sintaktik derivatsiyada tutgan o'rni, xususan, katta va kichik sintaktik qurilmalarning aplikativ model asosida kengayishi tamoyillariga doir masalalar hali tadqiq qilingani yo'q. Bu esa, dissertatsiya mavzusining dolzarbligini ko'rsatadi.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq OT-F8-062 raqamli "Til taraqqiyotining derivatsion qonuniyatlari" mavzusidagi fundamental loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** hozirgi o'zbek tilida aplikativ model va sintaktik derivatsiyaning ifoda imkoniyatlari, mikro va makrosintaktik strukturalar shakllanishi, aplikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar va elementar gap shakllanishidagi mavqeyini aniqlashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

- aplikativ modelning yaratuvchi kuch ekanligini yoritib berish;
- aplikativ modelning sinergetik imkoniyatini dalillash;
- sintaktik derivatsiya va leksik derivatsiya tamoyillarining umumiy talqinini berish;
- aplikativ modelning leksik derivatsiyaga munosabatini izohlash;
- aplikativ model asosida so'z birikmalari shakllanishini yoritish;
- aplikativ modelning gap shaklini kengaytiruvchi (yaratuvchi) mexanizmlardan biri ekanligini asoslash;
- aplikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi mavqeyini aniqlash;

---

"Linguistic Structure of Hebrew". Journal of the American Oriental Society 61.143–167. [This volume was edited by Z. Harris. Also published separately as Publications of the American Oriental Society; Offprint series, No.14.]; Naruse Takeshi. Toward a syntax of Japanese elliptical expressions: (1) in search of missing subjects / Takeshi Naruse // The Meiji Gakuin Ronso. – 1981. – № 309.

<sup>6</sup> Naruse Takeshi. Toward a syntax of Japanese elliptical expressions: (1) in search of missing subjects / Takeshi Naruse // The Meiji Gakuin Ronso. – 1981. – № 309, Kazuaki Hojo. Conditions on Contextual Deletion. Journal of Japanese Linguistics // Researchers in the field of Japanese linguistics and language education, Japanese language teachers. March 29, 2018.; Naomi Hanaoka McGloin. AD – Pronoinalization in Japanese. // Journal of Japanese Linguistics. De Gruyter | 2018; DOI: <https://doi.org/10.1515/jjl-1985-1-203>.

<sup>7</sup> Turniyozov N. Aplikativ usul va uning derivatsion imkoniyatlari xususida. Til sistemasi va hozirgi zamon lingvodidaktik aspekti. – Samarqand, 2011. B. – 259-263.; Abdupattoyev M. O'zbek matnida supersintaktik butunliklar. Nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1997; Qurbonova M. O'zbek tilshunosligida formal-funksional yo'nalish va sodda gap qurilishining talqini. Dok.diss.avtoref. – Toshkent, 2001.; G'.X.Yaxshiboyev G'.X. Hozirgi o'zbek tilida sodda gap sintaktik derivatsiyasi. – Toshkent: Fan, 2006.

applikativ modelning abzas derivatsiyasida tutgan o‘rnini ilmiy izohlash;  
applikativ modelning abzaslararo derivatsiyadagi o‘rnini belgilash.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida hozirgi o‘zbek tilida katta va kichik sintaktik qurilmalar maqomida kela oladigan til va nutq birliklari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** applikativ model, leksik va sintaktik derivatsiyaning nazariy asoslari, so‘z birikmalari va gap derivatsiyasining o‘ziga xos xususiyatlari, murakkab sintaktik qurilmalar hamda abzas shakllanishida applikativ modelning o‘rnini o‘rganishdagi muammolarning yechimi talqini tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot mavzusini yoritishda dialektikaning induktiv va deduktiv usullari, shuningdek, deskriptiv, distributiv hamda sintaktik derivatsiyaning applikativ va transformatsion usullaridan foydalanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilshunosligida applikativ model sintaktik va leksik derivatsiyaning ifoda imkoniyatlarini, shuningdek, mikrosintagmatik munosabatlarni hamda murakkab sintaktik qurilmalar shakli kengayishini ochib beruvchi kuch, sinergetik vosita ekanligi aniqlangan;

sintaktik derivatsiya hodisasining, asosan, transformatsion va gap shaklining kengayishi usullari bilan voqelanishi, bu gapning sintaktik shakli kengayishi jarayonda yuzaga chiqishi hamda applikativ model derivatsiyaning asosiy mexanizmi ekani dalillangan;

applikativ modelning muayyan til materialida qo‘llanilishi har bir tilning ichki qonun-qoidalariga va ularda faollik ko‘rsatuvchi applikatorlarning lisoniy tabiatiga bog‘liqligi, bu jarayon agglyutinativ tillarda *affikslar*, *ko‘makchilar* va *bog‘lovchilar* asosida, analitik tillarda *fe‘l shakllari*, *bog‘lovchilar*, *predloglar*, *yordamchi fe‘llar* orqali yuzaga chiqishi asoslangan;

applikativ model asosida so‘z birikmalarining shakli kengayishi, derivatsion jarayonda so‘z birikmasi zanjirining shakllanishi, bog‘lovchisiz MSQlarda ularning qismlarini o‘zaro turli leksik-morfologik vositalar: *leksik takrorlar*, *sinonimik vositalar*, *olmoshlar* va boshqa birliklar bog‘lashi hamda abzas derivatsiyasi operandlari *mustaqil gap*, *murakkab sintaktik qurilma*, *iloval qurilma* va boshqa nutq birliklari qolipida kelishi isbotlangan;

applikativ model asosida matn hajmining kengayishi, unda har bir abzasning o‘zi derivatsiya operandi bo‘lishi bilan birga, alohida olinganda mustaqil derivat hisoblanishi, bu jarayonda abzaslararo munosabat va mustaqil abzas komponentlari hamda ularning applikatorlari bir-biridan farq qilishi isbotlangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

applikativ model gap shaklini kengaytiruvchi mexanizmlardan biri ekanligi atroflicha yoritib berilgan;

applikativ modelning tilning nutqqa ko‘chirilishida salmoqli sinergetik kuchga ega ekanligi dalillangan;

applikativ model qo‘llanilishining yuqori bosqichi uning transformatsion model bilan o‘zaro kesishishi ekanligi faktik til materialiga tayangan holda asoslangan;

applikativ model faqat bir gap doirasida emas, balki mikrosintagmatik qurilmalar, jumllararo va abzaslararo qo'llanilishi ham mumkinligi konkret misollar asosida ko'rsatilgan;

dissertatsiya ensiklopedik lug'atlarni tayyorlashda, darslik va o'quv qo'llanmalarning mukammalligini ta'minlashda ilmiy-nazariy manba sifatida xizmat qilishi asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo'yilishi, xulosalarning qat'iyligi, shuningdek, tadqiqot yo'nalishi va tadqiqot metodlari, nazariy fikr va xulosalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati olingan ilmiy xulosalar va muhim nazariy umumlashmalardan oliy ta'lim muassasalarining filologiya fakultetlarida nutq lingvistikasi, til nazariyasi, matn lingvistikasi fanlaridan darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Ishning amaliy ahamiyati oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida, filologik yo'nalishdagi institutlarda nutq lingvistikasi, matn tilshunosligi masalalari bo'yicha ma'ruzalar o'qish, amaliy va seminar mashg'ulotlar olib borish, maxsus kurslar o'tish, darslik va o'quv qo'llanmalarni yaratish va turli tavsiyanomalar tuzishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**I. Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Applikativ model va derivatsion jarayonni o'rganish bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy va amaliy takliflar asosida:

applikativ modelning muayyan til materialida qo'llanilishi har bir tilning ichki qonun-qoidalariga va ularda qo'llanuvchi applikatorlar xarakteriga bog'liq ekanligi haqidagi nazariy qarashlardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining TEMPUS dasturi 2014-2016 yillarga mo'ljallangan Tempus Project 544161-TEMPUS-1-2013-1-UK-TEMPUS-JPCR Aston University DeTEL "Developing the Teaching of European Languages: Modernizing Language Teaching through the development of blended Masters Programmes" xalqaro tadqiqot loyihasini bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-martdagi № 673/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, tilshunoslikda derivatsiya tamoyillari hamda sintaktik qurilmalar derivatsion jarayonida applikativ modelning o'rni belgilashga erishilgan;

sintaktik derivatsiya hodisasi, asosan, ikki usul bilan: transformatsion va gap shaklining kengayishi usullari bilan voqelanishi, gapning sintaktik shakli kengayishi derivatsion jarayonda yuzaga chiqishi, applikativ model va transformatsion jarayon sintaktik derivatsiya hodisasining asosiy mexanizmlari ekanligi haqidagi nazariy qarashlardan Yevropa Ittifoqi tomonidan Erasmus + dasturining 2016-2018-yillarga mo'ljallangan 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: "O'zbekistonda oliy ta'lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish" nomli innovatsion tadqiqotlar loyihasi doirasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-martdagi № 672/02-son ma'lumotnomasi). Natijada "derivatsiya" va uning turlari, "transformatsiya" terminlarining ilmiy talqini to'g'risidagi aniq ma'lumotlar berilganligi kelajakda

lugʻat, oʻquv qoʻllanma, darsliklar kabi ilmiy adabiyotlarni yaratilishida va oliy taʼlim tizimida oʻqitiladigan grammatika, leksikologiya, stilistika kabi koʻplab fanlarni ilmiy dalillar bilan boyitilgan;

matnlarning shakllanishida ularning komponentlari orasidagi sintaktik-semantik bogʻlanish, folklor matnlari shakllanishining derivatsion xususiyatlari tavsifi, katta sintaktik strukturalar shakli applikativ model asosida kengayishi haqidagi ilmiy xulosalardan Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpogʻiston boʻlimi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan FA-F1-OO5-raqamli “Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligini tadqiq etish” mavzusidagi fundamental loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmi-tadqiqot institutining 2024-yil 25-iyundagi № 251/1-son maʼlumotnomasi). Natijada, amaliy qoʻllash fundamental loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda monografiyalar ilmiy saviyasini oshirishga xizmat qilgan;

applikativ model asosida soʻz birikmalarining shakli kengayishi, derivatsion jarayonda soʻz birikmasi zanjirining shakllanishi, bogʻlovchisiz MSQlarda ularning qismlarini oʻzaro turli leksik-morfologik vositalar: *leksik takrorlar*, *sinonimik vositalar*, *olmoshlar* va boshqa birliklar bogʻlashi haqidagi nazariy qarashlardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialida 2021-2023-yillarda bajarilgan “Oʻzbek tilining milliy korpusini loyihalash va dasturiy majmua ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyihasini amalga oshirishda foydalanildi (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 2024-yil 15-apreldagi № 227/01-01- son maʼlumotnomasi). Natijada, amaliy loyiha doirasida tayyorlangan ilmiy maqolalar hamda oʻzbek tilining milliy korpusi materiallari uchun ilmiy amaliy manba sifatida xizmat qilgan;

applikativ model asosida mikrosintaktik strukturalar shakllanishi, applikativ model va makrosintaktik qurilmalar derivatsiyasi hamda murakkab sintaktik qurilmalar, abzats derivatsiyasi operandlari mustaqil gap, murakkab sintaktik qurilma, ilovali qurilma va boshqa nutq birliklari qolipida kelishi haqidagi ilmiy xulosalardan Andijon davlat universitetida bajarilgan 2020-2023-yillarga moʻljallangan “Tarjimashunoslik va lugʻatshunoslik innovatsiya markazini tashkil etish asosida lugʻat va matn tarjimoni intellektual platformasini yaratish” mavzusidagi davlat amaliy-tadqiqot dasturlari doirasidagi loyihada foydalanilgan (Andijon davlat universitetining 2023-yil 28-dekabrdagi № 39-01-2855-son maʼlumotnomasi). Natijada, filologiya fakultetlarida nutq lingvistikasi, til nazariyasi, matn lingvistikasi fanlaridan yaratilgan ilmiy adabiyotlar boyitilib, ularning takomillashuviga erishilgan;

applikativ model va uning mikrosintagmatik qurilmalar shaklini kengaytiruvchi vosita ekanligi, sintaktik derivatsiya va leksik derivatsiyaning ifoda imkoniyatlari, applikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi mavqeyiga oid nazariy xulosalardan Samarqand davlat chet tillar institutida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi 58545-EPP-1-2017-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP CLASS: “Computational linguistics at Central Asian universities” ilmiy loyihani

bajarishda foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil 29-martdagi № 670/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, loyiha doirasida o'rganilgan applikativ metod bilan yasalgan so'zlar leksik derivatsiya voqelanishida tilning rivojlanish qonuniyatlariga bo'ysunishi hamda ushbu qonuniyatlarning tilshunoslikda shakllanishi tamoyillarini ishlab chiqilishi ta'minlangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqotning natijalari 8 ta, jumladan, 2 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 25 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta monografiya O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, ulardan, 8 tasi respublika va 7 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, to'rt asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Ishning umumiy hajmi 214 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **Kirish** qismida mavzuning dolzarbliigi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, predmeti va obyekti aniqlangan. Tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, uning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Olingan natijalarning ishonchiligi asoslanib, ishning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Applikativ model va leksik-sintaktik derivatsiya nazariyasi**" deb atalgan. Uning "*Applikatsiya va modellashtirish tizimi*" deb nomlangan birinchi faslida modellashtirish, applikativ model muammolari jahon tilshunosligining dolzarb masalasi ekanligi, u o'z mazmuni e'tiboriga ko'ra yaratuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan universal grammatikani taqozo etishi va qo'llanish obyekti konkret til bilan bog'liq ekanligi yoritilgan.

Applikativ model o'z mazmuniy e'tiboriga ko'ra yaratuvchanlik xususiyatiga ega bo'lgan universal grammatikani taqozo etadi, qo'llanish obyekti konkret til hisoblanadi. *Applikatsiya* so'zi lotincha "*application*" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, *ustiga qo'ymoq, yopishtirmoq, yamamoq* kabi tushunchalarni bildiradi<sup>8</sup>. Mazkur so'z tilshunoslikda ham aynan shu ma'nolarda qo'llanib, muayyan til birligiga, xususan, so'zga qo'shiladigan affikslarning barchasi shu qoidaga asoslanadi. Gap tarkibiga yangidan so'zlar qo'shilishi ham applikativ model doirasida sodir bo'ladi.

Ayrim olimlarning fikricha, applikativ model zanjirsimon bog'lanishga tayanadi. Ammo, bizningcha, applikativ model bog'lanib keluvchi zanjirlar bilan ham, kompleks birliklar bilan ham ish ko'radi. Bunda zanjirlarning tuzilishi *fenotip*

---

<sup>8</sup> Французко – русский словарь. – М., 1960. – С. 49; Словарь иностранных слов. – М., 1988. – С. 49.

(tashqi ko‘rinish), majmualarning strukturasi esa *genotip* (birliklarning qurilishi, konstruksiyasi)ni hosil qiladi. Bunday qarashlar S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevaning aplikativ yaratuvchi modellarga oid ilmiy izlanishlarida uchraydi<sup>9</sup>. Umuman, aplikativ model yaratuvchi (порождающая) model sifatida dastlab rus tilshunosligida S.K.Shaumyan tomonidan iste’molga kiritildi va u P.A.Soboleva, Y.D.Apresyan, Y.L.Ginzburg, I.S.Keselman, R.Konrad kabi tilshunoslar tomonidan tadqiqot ishlarida keng qo‘llanildi.

Aplikativ modelning asosiy vazifasi to‘g‘ri komplekslar va ularning to‘g‘ri transformatsiyasini yaratishdir. Ushbu model doirasidagi o‘zgarishlar Xomskiy ta’kidlagandek belgilanmaydi<sup>10</sup>, balki hisoblab chiqiladi. Hisob ikki bosqichda olingan jumlar to‘plamlariga asoslanadi: *birinchisi*, sinflar to‘plamini olish va *ikkinchisi*, ushbu to‘plamga ma’lum cheklov qoidalarini qo‘llash.

Biroq, bu orqali aplikativ modelni abstrakt model demoqchi emasmiz, u amalda qo‘llanib kelayotgan konkret modelni taqozo etadi. Abstraktlik tushunchasidan esa universal xarakterli bo‘lgan mavhum *etalon tilga* nisbatan foydalanamiz. Mazkur til aplikativ modelning muayyan qoidalariga bo‘ysunishiga qaramay, u abstraktligicha qoladi. Shuning uchun bunda abstrakt o‘zak, abstrakt affiks va h.k. tushunchalari iste’molda bo‘ladi. Bundan tashqari, aplikativ modelning qo‘llanish kuchini, ta’sir doirasini aniqlash uchun *abstrakt so‘z*, *abstrakt gap* va boshqa tushunchalaridan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir. Zotan, modelning konkret til materialiga amalda tatbiq etilishi barcha tillarga xos bo‘lgan ana shu universal qoidalariga va modelning umumiylikini ta’minlovchi, agar ta’bir joiz bo‘lsa, algoritmlarga tayanadi.

Shuni ham aytish kerakki, universal xarakterli genotipik tilning abstrakt materialiga tatbiq etilgan aplikativ model biror bir konkret tilni nazarda tutmaydi, balki barcha tillar uchun umumiydir. Mazkur qoidalarni konkret til materialida qo‘llash lozim bo‘lganda, yarim abstrakt holatdagi alohida genotiplarga murojaat etishga to‘g‘ri keladi. Masalan, o‘zbek tili genotipi, rus tili genotipi, ingliz tili genotipi va h.k<sup>11</sup>.

Aplikativ modelning muayyan tillar materialida qo‘llanilishi har bir tilning ichki qonun-qoidalariga, ularda qo‘llanuvchi aplikatorlar xarakteriga bog‘liq bo‘ladi. Jumladan, agglyutinativ tillarda affikslar, ko‘makchi va bog‘lovchilar muhim ahamiyat kasb etsa, analitik tillarda fe’l shakllari, bog‘lovchi, predlog, yordamchi fe’llar kabi morfologik vositalar katta mavqega ega bo‘ladi.

Aplikativ model to‘rtta o‘zaro bog‘langan modellarni (generatorlarni) o‘z ichiga oladi:

- 1) mavhum generator;
- 2) so‘z generatori;

---

<sup>9</sup> Шаумян С.К., Соболева П.А. Аппликативная порождающая модель и исчисление трансформаций в русском языке. – М., 1963, – С. 35.

<sup>10</sup>Chomsky N. Language and mind / N. Chomsky. – Enlarged ed-n. – N.Y. etc.: Harcourt Brace Jovanovich, 1972. – XII. – 194 p.

<sup>11</sup>Шаумян С.К., Соболева П.А. Основания порождающей грамматики русского языка. – М., 1968. – С. 10-11.

- 3) jumla generatori;
- 4) transformatsion generator<sup>12</sup>.

Аппликатив modelning yaratuvchanlik (порождающая) kuchi sodda obyektlardan murakkab obyektlarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Aynan ana shu narsa uni mustaqil lingvistik nazariya tarzida belgilashga imkon yaratadi. Tilshunos olim P.A.Soboleva so'z yasallishini modellashtirishga bag'ishlangan ilmiy ishida applikativ modelning tavsifi va mohiyatini ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berdi.

Аппликатив modelning konkret til materialiga tatbiq etilishi, o'z navbatida, elementar matematik qoidalardan foydalanishni talab qiladi. Albatta, bu qoidalardan matematikada qanday bo'lsa shundayligicha emas, balki ularni til materialiga moslashtirgan holda foydalaniladi. Shu bois, ayni paytda, muhim ahamiyat kasb etuvchi modellar muayyan formulalarning sodda shakllarini taqozo etadi. S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalar qayd etishlariga ko'ra, applikativ modelni genotipik tilning muayyan  $R$  obyektiga nisbatan qo'llamoqchi bo'lganimizda, e'tiborimiz markazida  $R$  – so'z, yoxud  $R$  – gap bo'ladi. Bu o'rinda mualliflar  $R$  – gap xususida mulohaza yuritishni ma'qul ko'radilar va ba'zi ishlarda obyekt sifatida *Кошка пьёт молоко* – *Mushuk sut ichmoqda* jumlasini oladilar. Bunda *кошка* so'zini  $R_2O$  formulasi, *пьёт* so'zini  $R_1O$ , *молоко* so'zini esa  $R_4R_2O$  formulalari bilan belgilaydilar va ularni umumlashtirganda quyidagi murakkab formula shakllanishini ko'rsatib beradilar:  $(R_2O, R_1O, R_4R_2O)$ . Mazkur murakkab strukturaga applikativ model orqali yondashilganda, tubandagi abstrakt jumla shakllanadi  $((R_4R_2O R_1O) \cdot R_2O)$ . Buni *Кошка пьёт молоко* jumlasining genotipik obrazi deb atash mumkin<sup>13</sup>.

S.K.Shaumyan va P.A.Sobolevalar applikativ yaratuvchi modelda berilgan material tahlilida quyidagi ikki narsani farqlaydilar: abstrakt va konkret obyektlar. Boshqacha aytganda, abstrakt obyektida genotiplar (umumiy, mavhum) nazarda tutilsa (ayni paytda genotip holatdagi so'zlar ham e'tiborga olinishi mumkin), konkret obyektida esa fenotiplar, ya'ni konkret tilning konkret gaplari diqqat markazida bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli "*Sintaktik va leksik derivatsiya paradigmasi*" deb nomlangan. Aytish joizki, "leksik derivatsiya" atamasi keng va tor ma'noda qo'llanilishi mumkin. Keng ma'noda leksik derivatsiya, har qanday so'zning (bu jarayon qanday yuz berishidan qat'i nazar) yasallishini anglatadi. Bunda so'zlar turli xil mexanizmlar yordamida shakllanishi mumkin. Metaforizatsiya yoki metonimizatsiya (semantik derivatsiya) orqali so'zni qayta talqin qilish, mustaqil so'zlarni birlashtirish (so'z shakllanishining morfologik va sintaktik usuli - V. V. Vinogradovga ko'ra), kompressiya, maxsus operatorlar (formantlar) yordamida so'zni shakllantirish kabilar shular jumlasiga kiradi.

Tor ma'noda leksik derivatsiya so'z shakllanishining ma'lum mexanizmi hisoblanadi. Bu tilda mavjud bo'lgan, formantlar deb ataladigan formal vositalar yordamida qat'iy qoidalarga muvofiq amalga oshiriladi. Boshqacha aytganda, so'z

---

<sup>12</sup> Шаумян С.К. Структурная лингвистика. – М., 1985. – Б. 190.

<sup>13</sup> Шаумян С.К., Соболева П.А. Основания порождающей грамматики русского языка. – М., 1968. – Б. 12-13.

yasalishi hodisasi tor ma'nodagi leksik derivatsiya sanaladi. Formal yasama so'zlar esa uning mahsuli hisoblanadi.

Leksik derivatsiya tamoyillariga ko'ra yasama so'zni shakllantirish mexanizmi derivatsion bosqichning umumiy formulasi bilan yetkazilishi mumkin: A + O V (AOV), bu yerda - A va V so'zlar (operandlar), O derivatsiya operatori sifatida xizmat qilgan formant.

Masalan: *ishchi, qalamdon, bog'bon* va h.k.

Keltirilgan misollarni biz derivatsion nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, *ish, qalam, bog'* operand, *-chi, -don, -bon* – operator, hosil bo'lgan struktura esa (*ishchi, qalamdon, bog'bon*) derivat sanaladi. Buni sxemada quyidagicha ko'rsatish mumkin:

A	+	O	→	V
<i>ish</i>		<i>-chi</i>		<i>ishchi</i>
<i>qalam</i>		<i>-don</i>		<i>qalamdon</i>
<i>bog'</i>		<i>-bon</i>		<i>bog'bon</i>

Leksik derivatsiyada faol ishtirok etgan operator, operand va derivat atamalari derivatsiyaning boshqa turlarida ham qo'llaniladi. Jumladan sintaktik derivatsiya tamoyillariga ko'ra ham aynan shu atamalar yetakchi sanaladi. Biroq leksik derivatsiyadan farqli o'laroq sintaktik derivatsiya yasama so'zlarni emas, balki so'z birikmalari, gaplar, murakkab sintaktik qurilmalar va matnlarni taqozo qiladi.

Tilshunos olim Yeji Kurilovich o'z tadqiqotlarida sintaktik derivatsiyaning ilmiy asoslarini yaratgan. Uning fikricha, sintaktik derivatsiyada so'nggi hosilaning leksik ma'nosi asos strukturaning leksik ma'nosidan farq qilmasligi, shu bilan birga, asos strukturadan derivat tarkibidagi leksik birliklar farq qilmasligi lozim<sup>14</sup>. Bu kabi fikrlar L.N.Murzin tadqiqotlarida ham uchraydi. Olim sintaktik derivatsiya haqida gapirganda, derivatsiyani transformatsiyaning muqobili sifatida ta'riflaydi va hosila struktura asos strukturadan semantik jihatdan emas, balki faqat shakliga ko'ra farqlanishini aytadi va quyidagi misolni keltiradi:

*С самолёта сбросили бомбы* ←→ *С самолёта сброшены бомбы*

Olim transformatsion jarayonda gapning semantik jihati qanday o'zgarishga uchramasin, uning leksik komponentlari tarkibi o'zgarishsiz qolishi kerak, degan an'anaviy qarashlarga qarshi chiqib, gap tarkibida leksik komponentlarning miqdori predloglar va boshqa yordamchi so'zlar hisobiga o'zgarishi mumkinligini ta'kidlaydi: Студент купил книгу у товарища Н. = Товарищ Н. продал студенту книгу<sup>15</sup>.

Biroq, bizningcha, olimlar sintaktik derivatsiyani ancha tor ma'noda izohlashgan. To'g'ri, derivatsiya va transformatsiya hodisalari bir-biri bilan uzviy bog'liq, lekin ular bir narsa emas. Sintaktik derivatsiya jarayonida hosila struktura asos strukturadan faqatgina yordamchi so'zlar hisobiga emas, balki aplikativ model orqali mustaqil so'zlarni qo'shish hisobiga ham kengayadi:

<sup>14</sup> Kurilowicz J. Derivation lexicale et derivation syntaxique. – BSL, 1936.

<sup>15</sup> Мурзин Л.Н. Основы дериватологии. – Пермь, 1984. – С. 46.

*Tohir qopning ichida uncha katta bo'lmagan po'lat sandiq borligini sezdi (P.Qodirov, Yulduzli tunlar).*

Mazkur gapda sintaktik derivatsiya hodisasi quyidagi jarayonlarda amalga oshadi:

*sezdi – V*

*Tohir sezdi – N+V*

*Tohir borligini sezdi – N+X<sub>1</sub>+V (operator -ni)*

*Tohir sandiq borligini sezdi – N+X<sub>2</sub>+V(operator belgisiz -ning)*

*Tohir po'lat sandiq borligini sezdi – N+X<sub>3</sub>+V(nol operator)*

*Tohir uncha katta bo'lmagan po'lat sandiq borligini sezdi – N+X<sub>4</sub>+V (operator - gan)*

*Tohir qopning ichida uncha katta bo'lmagan po'lat sandiq borligini sezdi – N+X<sub>5</sub>+V(operator -da).*

Ko'rinadiki, sintaktik derivatsiya jarayonida leksik komponentlarning miqdori asos struktura bilan bir xil bo'lishi shart emas. So'zlovchi gap shaklini xohlaganicha kengaytirish imkoniyatiga ega. Bu o'rinda biz V.S.Xrakovskiyning fikrlariga qo'shilamiz. Olimning ta'kidlashicha, sintaktik derivatsiya jarayonida hosila struktura asos strukturadan qonuniy ravishda farq qilishi kerak. Shu bilan birga uning qarashlarida asosiy e'tibor asos strukturaga (базовая структура) qaratilgan. Boshqacha aytganda, uning fikriga ko'ra, sintaktik derivatsiyaning asosiy tamoyili hosila strukturaning asos strukturadan farqlanishini taqozo etadi<sup>16</sup>.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi “**Applikativ model va kichik derivatlar shakllanishi**” deb nomlanib, unda aplikativ modelning leksik derivatsiyaga munosabati, aplikativ model va so'z birikmalari shakllanishi kabi masalalar yoritilgan.

Mazkur bobning “*Applikativ modelning leksik derivatsiyaga munosabati*” deb nomlangan birinchi faslida leksik derivatsiyada aplikativ modelning tutgan o'rni yoritib berilgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, leksik derivatsiya muayyan tilning so'z yasaliş modellariga asosan affikslar yordamida yangi so'z hosil qilishni taqozo qiladi.

Ayni paytda shuni alohida ta'kidlash lozimki, so'z yasaliş hodisasi bugungi kunda tilshunoslikning alohida bo'limi sifatida o'rganilmoqda. Bu esa, mazkur hodisa talqiniga yanada jiddiyroq ahamiyat berilayotganidan dalolat bermoqda va buning natijasi o'laroq, bu sohada salmoqli ishlar amalga oshirildi.

So'z yasaliş masalasi har bir tilning alohida e'tiborga molik jihatlaridan birini taqozo etadi. Zotan, til leksikasi doim harakatda bo'lib, uning tarkibi til taraqqiyoti bilan bog'liq holda o'zgarishlarga uchraydi: ba'zi so'zlar eskirib, faolligini yo'qotadi, qo'llanishi chegaralanib, bora-bora umumiste'mol doirasidan chiqadi, ularning o'rniga yangi so'zlar paydo bo'lib, ular til leksikasini to'ldiradi<sup>17</sup>.

Derivatologiya muammolari zamonaviy tilshunoslikning dolzarb masalalari qatoridan o'rin olgan. Derivatsiya hodisasi transformatsiya hodisasi bilan uzviy

<sup>16</sup> Храковский В.С. Трансформация и деривация // Проблемы структурной лингвистики. – М.: Наука, 1973. – С. 489-507.

<sup>17</sup> Gulomov A.G. So'z yasaliş / O'zbek tili grammatikasi. – Toshkent, 1775. – B. 7.

bog‘liqdir. N.Xomskiy, Z.Xarris va boshqalarning transformatsion modelidan keyin struktur tilshunoslikka applikativ model kirib keldi. Mazkur model ham, transformatsiya kabi yaratuvchi kuchga egaligi bilan alohida ajralib turadi.

Ta’kidlanganidek, applikativ model yaratuvchi (порождающая) model sifatida rus tilshunosligida S.K.Shaumyan tomonidan iste’molga kiritildi va u P.A.Soboleva, Y.D.Apresyan, Y.L.Ginzburg, I.S.Keselman, R.Konrad kabi tilshunoslar olimlarning tadqiqot ishlarida keng qo‘llanildi.

Applikativ modelining qo‘llanilishi P.A.Soboleyaning ko‘rsatishicha, birinchi navbatda odatdagi so‘z yasalishi asosiga tayanadi. Bu haqda ishimizning oldingi bobida eslatib o‘tilgani singari, asos (yasalish asosi yoki derivatsiya operandi) yasovchi qo‘shimchalarning (affikslarning) qo‘llanilishi uchun imkoniyat yaratadi. Boshqacha aytganda, asos bo‘lmas ekan affiks o‘z-o‘zicha qo‘llana olmaydi.

*Masalan: tilshunos, xizmatkor.*

Berilgan so‘zlarning birinchisi *til*, ikkinchisida esa *xizmat* tarzida kelayotgan o‘zak morfemalar applikativ usulning qo‘llanilishiga imkon yaratayotgani uchun mazkur o‘zak morfemalarga *-shunos* hamda *-kor* affikslari tirkalib derivatsion jarayon vujudga kelmoqda. Bu, albatta, applikativ usul vositasida yuzaga chiqadi:

O (asos) + R<sub>2</sub>.

Har ikki yasama so‘zning shakllanishi ham ana shu formulaga bo‘ysunadi. Bunda R<sub>2</sub> ot yasovchi qo‘shimchani ko‘rsatish uchun qo‘llanmoqda<sup>18</sup>.

Keltirilgan misollarda leksik derivatsiya voqelanishi jarayonida operator tanlash imkoniyati ham mavjudligini ko‘ramiz: *til+chi, xizmat+chi*. Ayni paytda derivatsion jarayon *-shunos* yoki *-kor* affikslari qo‘llanilishini shart qilib qo‘ymaydi. So‘zlovchining xohishiga ko‘ra *tilchi, xizmatchi* tarzida *-chi* affiksidan foydalanish ham mumkin. Biroq bunday vaziyat, ya’ni operator tanlash imkoniyati har doim ham bo‘lavermaydi. Masalan, *kimyogar, firibgar, bog‘bon, kitobxon, zamondosh* va h.k. Yasama so‘zlar shakllanishida ikkinchi operatorni qo‘llab bo‘lmaydi.

Ko‘rinadiki, so‘z yasalishi hodisasi jarayoni anchagina murakkab jarayonni taqozo etadi. Chunki ayrim hollarda muayyan bir vosita yordamida yasalgan so‘zga asoslangan holda yana yangi so‘zlar yasalishini kuzamiz. Demakki, yangi hosilalar shakllanishining guvohi bo‘lamiz. Bunday vaziyatda “yasamadan yasama” modeli katta ahamiyat kasb etadi va har safar yangi so‘z yasalganda yasalish jarayoni murakkablashib boradi. Aytish lozimki, leksik derivatsiya operandi va operatori munosabatidan nafaqat yasama so‘z tashqi strukturasi, balki, uning ichki strukturasi ham belgilay olamiz. Yasama so‘zning tashqi strukturasi asosiy komponentlari operand, operator va derivat hisoblanadi. Ichki strukturasi esa, yasama so‘z komponentlarining yashirin holda shakllanuvchi sintaktik aloqalaridan iborat bo‘ladi. *Masalan: vatandosh, o‘lchagich.*

Berilgan misollarda quyidagi tarzdagi sintaktik munosabat mavjud: *vatan* – obyekt, *-dosh* – subyekt. Biroq obyekt bilan subyekt munosabati yashirin holdagi *yashamoq* fe’lining ta’sirida ro‘yobga chiqqan. Demak, ayni paytda obyekt – harakat – subyekt tarzidagi sintaktik aloqa shakllanadi.

---

<sup>18</sup> Soboleva P.A. Моделирование словообразования / Проблемы структурной лингвистики. – М., 1972. – С. 171.

Ikkinchi misolda *o'lcha* – harakat, *-gich* – vosita. Biroq bu o'rinda ham *harakat* va *vosita* tushunchalari mavjud ekan, obyektning yashiringan holda ifodalangan. Chunki o'lchash uchun nimaningdir mavjud bo'lishi shart.

Bobning ikkinchi fasli "*Applikativ model va so'z birikmalari shakllanishi*" deb nomlanib, unda so'z birikmalari derivatsiyasida aplikativ modelning roli yoritilgan. Ta'kidlash joizki, an'anaviy tilshunoslikda so'z birikmalari komponentlari tahlilida hokim so'z va tobe so'z hamda ularning birikma tarkibidagi mavqeyini aniqlash muammosi ko'ndalang turadi. Hokim komponent bilan tobe komponentning qaytarzda munosabatga kirishuvi masalasi so'z birikmalarining sintaktik derivatsiyasini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega. Zero, ikki komponent o'rtasidagi aloqa vositasi sintaktik derivatsiyaning operatori funksiyasini bajarishi so'z birikmalarining derivatsion aspektida o'rganilishida o'ta muhimdir.

1. Bu yil ***Bahmalning bahori*** ham misli ko'rilmagan darajada go'zal keldi (*Sh.Rashidov*).

2. Bu ovoz tinib ulgurmasdan ***xunning ichidan jarang-jurung bilan childirma sadolari*** yangradi, ketidan «ovmin» ham eshilib qoldi (*X. To'xtaboyev*).

Keltirilgan misolagi *Bahmalning bahori, xunning ichi, childirma sadolari* so'z birikmalarida *-ning* kelishik va *-i* egalik qo'shimchalari sintaktik derivatsiya operatori vazifasida kelgan. *Childirma sadolari* birikmasida ham *-ning* qo'shimchasi ochiq qo'llanilmagan bo'lsa-da, uning mavjudligini inkor etib bo'lmaydi. Boshqacha aytganda, ikkinchi misolda berilgan so'z birikmasining (*childirma sadolari*) sintaktik derivatsiyasi operatorsiz yoki noto'liq operatorli voqelangan, degan xulosaga kelmaslik kerak. Chunki tushirilgan affiks ham real ifodali morfema qanday derivatsion mavqeyga ega bo'lsa, shunday salmoq kasb etadi:

1. Agar qo'shnilar bilan yaxshi muomala qilsangiz, ***ular qalbiga yo'l topa olsangiz, ish o'z-o'zidan yurishib ketaveradi. Tushunarlimi?*** (*X. To'xtaboyev, Sariq devni minib*).

2. Menga qarang, ***g'o'zalar tubidan*** ushlab qattiqroq silkitsak shirasi to'kilib ketmasmikan-a? (*X. To'xtaboyev, Sariq devni minib*).

Berilgan misollarning birinchisida *ular qalbi* o'tli birikmasining sintaktik derivatsiyasi belgisiz faollik ko'rsatayotgan *-ning* affiks morfemasi (*ular+ning*) vositasida ro'y berayotganini ko'ramiz. Bu singari belgisiz qo'llanilgan morfemani istalgan paytda o'z o'rniga tiklash mumkin. Ikkinchi misolda ham shu singari holat kuzatiladi: *g'o'zalar(ning) tubi*.

Ayrim vaziyatlarda so'z birikmalari strukturasi bir necha hokim so'z yoki bir necha tobe so'zning qo'shilishi natijasida kengayishi mumkin. Mazkur holatni aplikativ model tamoyillariga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, so'z birikmasiga qo'shilayotgan har bir hokim yoki tobe komponentga aplikat sifatida qarashimiz mumkin. Aplikativ modelning yaratuvchanlik xususiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu model asosida so'z birikmasi strukturasi yangi-yangi aplikatlar evaziga kengayadi:

*chinni piyola* ↔ *paxta gulli chinni piyola*

Applikativ modelning yaratuvchanlik (порождающая) kuchi sodda obyektlardan murakkab obyektlarning shakllanishida namoyon bo‘ladi. Aynan ana shu narsa uni mustaqil lingvistik nazariya tarzida belgilashga imkon yaratadi. So‘z birikmasi strukturasi sintaktik shakli kengayishi derivatsion jarayon doirasida vujudga keladi va shu bois aplikativ model qo‘llanilishini sintaktik derivatsiya nazariyasining asosiy usullaridan biri sifatida o‘rganamiz. Yuqoridagi misolni ham derivatsion aspektda tahlil qiladigan bo‘lsak, *chinni piyola* so‘z birikmasi komponentlarining sintaktik munosabatlari bitishuv usuli orqali yuzaga kelganligi sababli, bu o‘rinda derivatsiya operatori funksiyasida real holatda berilgan morfologik vosita kuzatilmaydi. Shuning uchun bu singari so‘z birikmalari sintaktik derivatsiyasini *nol operatorli* deb nomlaymiz<sup>19</sup>. Ikkinchi bosqichda so‘z birikmasining shakli kengayib, unga *paxta gulli* obyekt qo‘shilgan. Buning natijasida *paxta gulli chinni piyola* so‘z birikmasi zanjiri hosil bo‘layapti. Mazkur birikmada *-li* sifat yasovchi qo‘shimchasi aplikator vazifasini bajarib, derivatsion jarayonda u operator maqomida kelgan:

*Chinni piyola*  $\longleftrightarrow$  hosila struktura; *chinni, piyola* – operand, nol operator (birinchi bosqich).

*Paxta gulli chinni piyola*  $\longleftrightarrow$  hosila struktura; *paxta gulli, chinni, piyola* – operand (aplikat), operator – *-li* (aplikator), (ikkinchi bosqich).

Ko‘rinadiki, aplikativ model qo‘llanilgan har qanday obyekt derivatsiya mahsulini taqozo etadi. Jumladan, so‘z birikmasi ham ana shunday xususiyat kasb etadi.

Ta’kidlash lozimki, aplikatorlar so‘z birikmasi tarkibida qancha bo‘lishidan qat’i nazar, bir-birlarini hech qachon inkor etmaydi. Ammo masala tavsifiga derivatsion nuqtayi nazardan yondashiladigan bo‘lsa, aplikativ model qolipida shakllanayotgan qurilmada keyingi operator oldingisini inkor etadi. Masalan:

*Meva ko‘targan yosh hasharchi qiz*

Keltirilgan misolda *-gan, -chi* kabi affikslar ishtirok etgan. Bu affikslarning har ikkalasi so‘z birikmasi zanjirida aplikator (Shaumyan tadqiqotlarida relyatorlar<sup>20</sup>) maqomida keladi. Mazkur so‘z birikmasini quyidagi bosqichlarda tahlil qilishimiz mumkin:

Hasharchi qiz – *-chi* aplikator.

Yosh hasharchi qiz – *-chi* aplikator

Meva ko‘targan yosh hasharchi qiz – *-gan, -chi* aplikator.

Mazkur so‘z birikmasi zanjirining derivatsion tahlili quyidagicha bo‘ladi:

*Hasharchi qiz*- operator *-chi* (birinchi bosqich) ;

*Yosh hasharchi qiz* – nol operator (ikkinchi bosqich);

*Meva ko‘targan yosh hasharchi qiz* – operator *-gan* (uchinchi bosqich).

Bunda yuqoridagi so‘z birikmasi zanjirining derivatsion modellari sxemasini quyidagicha ifodalash mumkin:

<sup>19</sup> Chetin M. Hozirgi o‘zbek va turk tillarida so‘z birikmalari sintaktik derivatsiyasi. // nomz.dis... – Samarqand, 2002. – B. 9.

<sup>20</sup> Шаумян С. К. Структурная лингвистика. – М.: Наука, 1965. – С. 184.

$N_1$  (operator)  $N_2$ ;  
d (nol operator)  $N_1 N_2$ ;  
 $N_3 d_2$  (operator)  $d_1 N_1 N_2$ .

Ko‘rinadiki, applikativ model asosida tahlil qilinganda, so‘z birikmasi strukturasi qancha kengaysa, applikatorlar ham shuncha ko‘payadi. Ammo mazkur so‘z birikmalarini derivatsion nuqtayi nazardan tahlil qiladigan bo‘lsak, so‘z birikmasi strukturasi kengaygan sari, eski operatorlar yangi operatorlarga o‘z o‘rnini bo‘shatib beradi. Demak, derivatsion jarayonda hosila strukturada operatorlar soni faqat bitta bo‘ladi. To‘g‘ri, so‘z birikmasining moslashuvli modelida biz *-ning* va *-i* (*maktabning bog‘i*) qo‘shimchalarining har ikkalasini operator maqomida kelishini oldingi ishlarimizda ham ta‘kidlaganmiz, ammo mazkur operatorlar qo‘shilmasi tarkibli operator (dublooperator)<sup>21</sup> sanalib, hosila strukturada soni jihatidan ular bitta operator deb olinadi.

Tadqiqotning uchinchi bobi “**Applikativ model va sintaktik qurilmalar derivatsiyasi**” deb nomlanadi. Mazkur bobning birinchi faslida applikativ model va gapga xos semantik-sintaktik transformatsiya yoritilgan. Gap sintaktik shaklining kengayishida affikslarning mavqeyi katta ekanligi izoh talab qilmaydi, zero, affikslar so‘z o‘zagi yoki negiziga qo‘shilib kelib, uni ikkinchi so‘z bilan bog‘laydi va natijada gapning sintaktik shakli har safar muayyan so‘zlar evaziga kengayib boradi. Biroq, shuni ham aytish kerakki, har qanday affiks ham bunday xususiyatga ega bo‘la olmaydi. Chunki affiksning sintagmatik qator zanjirini tashkil etishdagi funksional faolligi uning morfema sifatida o‘ziga xos grammatik ma‘no anglatishi bilan uzviy bog‘liq. Boshqacha aytganda, gap sintaktik shaklining kengayishi muqarrar ravishda muayyan ma‘no (grammatik) ifodasini beruvchi affikslar vositasida, ular applikator vazifasini bajarishi jarayonida ro‘y beradi.

Biroq so‘z oxiridan o‘rin oluvchi affikslar har doim ham applikator vazifasini bajaravermaydi. Bu haqda mulohaza yuritganida V.B.Kasevich, A.I.Isachenko fikriga munosabat bildirib, muayyan so‘zlar sathida nafaqat affiks morfemalar, balki o‘zak morfemalar ham na leksik, na grammatik ma‘no anglatishini qayd etadi va Isachenko bergan *Suvorov* so‘ziga murojaat etadi. Mazkur so‘zda na o‘zak va na affiks morfema (*Suvor+ov*) ma‘no anglatishini alohida ta‘kidlaydi<sup>22</sup>.

Darhaqiqat, so‘zning *Suvor* qismi ham, *-ov* affiks qismi ham ayni paytda hech qanday ma‘no anglatayotgani yo‘q. Shu bois mazkur so‘z faqat yaxlit holda olingangina shaxs oti ma‘nosini bildiradi. Shu sababli *-ov* affiksi applikator bo‘la olmaydi. Chunki *-ov* affiksi o‘zi tirkalib kelayotgan so‘zni keyingi so‘z bilan bog‘lash uchun xizmat qilmaydi. Applikator maqomida keluvchi affikslar esa bu jihatdan ancha faol hisoblanadi. Qiyoslang:

*Suvor+ov nutq so‘zladi* (applikator nolga teng).

*U maktabda o‘qiydi (-da applikator).*

Mazkur gaplarning struktur sxemalarini quyidagi abstrakt modellarning qolipida berish mumkin:

---

<sup>21</sup> Turniyozov N.Q., Turniyozov B.N., Turniyozova Sh.N. O‘zbek tili derivatsion sintaksisiga kirish. – Toshkent, 2010. – B. 27.

<sup>22</sup> Касевич В. В. Семантика.Синтаксис. Морфология. – М., 1988. – С. 129-130.

$N_1 N_2 V \leftrightarrow N_1 N_2 + \text{applikator } V$

Shuni ham aytish kerakki, affiks applikatorlar (Shaumyan terminologiyasida relyatorlar) muayyan soʻzga qoʻshilgach, gap tarkibiga ikkinchi soʻzning kiritilishi uchun imkoniyat yaratgan taqdirdagina gap sintaktik shaklining kengayishi uchun xizmat qila oladi, aks holda esa, u soʻz kengaytiruvchisi vazifasidagi applikator maqomini oladi:

1. *Dildor harakat qilardi* - tayanch struktura

*Dildor koʻrinmaslikka harakat qilardi* - shakli kengaygan hosila struktura: applikator *-ka* (*-ga*).

*Dildor Nizomjonga koʻrinmaslikka harakat qilardi* (S.Ahmad. "Ufq"). -shakli kengaytirilgan hosila struktura: applikator (*-ga*).

Berilgan gaplarning modellari:  $NV$ ;  $NX$  (*ap.*)  $V$ ;  $N_1 N_2$  (*ap.*)  $V^{23}$ .

2. *Qizlar ranjigandek boʻlishdi*.

Mazkur gapda *-lar* affiksi applikator maqomida kelayotganidan qatʼi nazar, u gapning sintaktik shaklini kengaytirish uchun xizmat qilmaydi. Bunda ushbu affiks oʻz faolligiga koʻra faqat bir soʻz sathida vazifa bajaradi:  $N$  (*appl.*)  $V$ .

Gapning sintaktik shaklini kengaytiruvchi applikator oʻzi vositasida munosabat bogʻlanayotgan soʻz bilan (keyingi soʻz bilan) kontakt aloqada emas, balki distant aloqada boʻlishi ham mumkin. Ammo bu orqali uning sintaktik faolligiga putur yetmaydi: *Uydan mehmonlarning endi oyogʻi uzildi* (S.Ahmad. "Ufq").

Applikativ modelni tashkil etishda qatnashayotgan affikssiz qoʻllanilgan soʻzlar ham applikator vazifasini bajaradi: *Kechagina chugʻurlashib yurgan chumchuqlar in-iniga kirib yoʻqoldi* (H.Gʻulom. "Toshkentliklar").

Keltirilgan gapning sintaktik derivatsiyasi *chumchuqlar yoʻqoldi* tarzida kelayotgan tayanch strukturaga asoslangan boʻlib, derivatsion jarayon bosqichlari quyidagilardan iborat:

1) *Chumchuqlar kirib yoʻqoldi*:  $N X_1 V$ ;

2) *Chumchuqlar in-iniga kirib yoʻqoldi*:  $N X_1 X_2 V$ ;

3) *Chugʻurlashib yurgan chumchuqlar in-iniga kirib yoʻqoldi*:  $X_3 N X_1 X_2 V$ ;

4. *Kechagina chugʻurlashib yurgan chumchuqlar in-iniga kirib yoʻqoldi*:  $X_4 X_3 N X_1 X_2 V$ .

Berilgan modellarda derivatsiya bosqichlari soni toʻrtga teng boʻlib, bunda har bir bosqich applikatsiyaning muayyan bir koʻrinishida shakllangan: birinchi derivatda (hosilada)  $X_1$  tarzida belgilanayotgan soʻzlar vositasida, ikkinchi derivatda  $X_2$  holatida belgilanayotgan affiks applikatorli soʻz yordamida, uchinchi derivatda  $X_3$  formulasi bilan ifodalanayotgan soʻz koʻmagida, toʻrtinchi derivatda esa applikator vazifasida faollik koʻrsatayotgan  $X_4$  simvollari orqali berilayotgan soʻzlar. Mazkur soʻz applikatorlarning har biri gapning sintaktik shaklini kengaytirish uchun xizmat qiladi. Biroq, shunday boʻlishiga qaramay, gapning sintaktik shakli kengayishida affiks applikatorlarning qoʻllanish darajasi ancha yuqori boʻladi. Bunday applikatorlar egalik, kelishik qoʻshimchalari, soʻzning grammatik shakllarini yasovchi turli xil qoʻshimchalar tarzida faoliyat koʻrsatadi.

<sup>23</sup> Mazkur modellar genotipik xarakterli abstrakt strukturalarning fenotipik xarakter kasb etayotganini taqozo etadi.

Mazkur bobning ikkinchi faslida “Applikativ modelning murakkab sintaktik qurilmalar shakllanishidagi o‘rni” yoritilgan. Ma’lumki, murakkab sintaktik qurilmalar (MSQ) har qanday til sintaksisida ham eng katta salmoqqa ega. Agar sodda gaplar strukturasi juda katta hajmga ega bo‘la olganda ham undagi barcha ishtirokchi elementlar bitta predikativ markaz atrofida munosabatga kirishadi. MSQlarda esa yolg‘iz predikativ markaz haqida so‘z yurita olmaymiz. Masalan, teng munosabatli MSQlarning aksariyat qismi avtosemantik<sup>24</sup> gaplar hisoblanganligi uchun ularning tarkibiga birlashayotgan har bir gap o‘zining predikativ yadrosiga ega bo‘lsa, ergash gapli qo‘shma gaplar komponentlari semantik<sup>25</sup> strukturaga ega bo‘lib, ularning tarkibida ham biri ikkinchisi bilan bog‘liq bo‘lgan ikki yoki undan ortiq predikativ yadrolar mavjud bo‘ladi. Xususan, tobe munosabatli MSQlarda sintaksisning eng murakkab qonun-qoidalari uchraydi. Chunki tobe munosabatli MSQlar masalasi har qanday til sistemasida ham sodda gap muammosidan ko‘ra murakkabroq hisoblanadi. Bu masala, bizningcha, eng avval verbal kommunikatsiya va uning ifodalanish usullari bilan bog‘liq bo‘lishi shart.

Murakkab sintaktik qurilmalarni sintaktik derivatsiya nuqtayi nazaridan o‘rganadigan bo‘lsak, ularni ikki jihatdan ko‘rib chiqish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Birinchidan, MSQ komponentlarini alohida-alohida tahlil qilish, ikkinchidan, MSQ ning o‘zini yaxlit struktura sifatida ko‘rib chiqish. Aytish lozimki, biz har ikki usulda ham aplikativ modelning MSQ sintaktik derivatsiyasidagi o‘rnini ko‘rishimiz mumkin:

*1. Qosimbek Bobur Mirzoning ustozlari Xo‘ja Abdullani uyidan qidirib topgach, ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi (P. Qodirov. “Yulduzli tunlar”).*

Keltirilgan MSQ ikki komponentdan iborat bo‘lib, polipredikativ xususiyatga egadir. Mazkur MSQni yaxlit struktura sifatida tahlil qiladigan bo‘lsak, uning har bir komponenti derivatsiya operandi sanaladi. Ikki komponentni bog‘lovchi vosita esa (-gach) MSQ sintaktik derivatsiyasining operatori maqomida kelgan:

1-operand – *Qosimbek Bobur Mirzoning ustozlari Xo‘ja Abdullani uyidan qidirib topgach;*

2-operand – *ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi*

operator – *-gach (aplikator)*

MSQ komponentlarining sintaktik derivatsiyasi alohida-alohida tahlil qilinganda, u quyidagi bosqichlarda amalga oshadi:

I.

1) *Qidirib topgach* – tub struktura: V;

2) *Qosimbek qidirib topgach* – tayanch struktura: N+V;

3) *Qosimbek uyidan qidirib topgach* – hosila struktura: N+X<sub>1</sub>+V (operator – -dan)

4) *Qosimbek Xo‘ja Abdullani uyidan qidirib topgach* – hosila struktura: N+X<sub>2</sub>+V (operator – -ni);

---

<sup>24</sup> Гулыгина Е.В. Теория сложноподчинённого предложения в современном немецком языке. – М.: Высшая школа, 1971. – С.18.

<sup>25</sup> Гулыгина Е.В. Ko‘rsatilgan manba. – С. 20-26.

5) *Qosimbek ustoz Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach* – hosila struktura: N+X<sub>3</sub>+V (operator – -i);

6) *Qosimbek Bobur Mirzoning ustoz Xo'ja Abdullani uyidan qidirib topgach* – hosila struktura: N+X<sub>4</sub>+V (operator – -ning).

Ko'rinadiki, MSQ birinchi komponentining sintaktik derivatsiyasi olti bosqichdan iborat bo'lib, derivatsion jarayon uchinchi bosqichdan boshlanadi. Shuningdek derivatsion jarayon boshlangandan tirkalayotgan applikatorlar derivatsion nuqtayi nazardan operator maqomida keladi. Ammo aytish joizki, yangi operator maydonga chiqqandan so'ng, eskisi o'z o'rnini yangisiga bo'shatib berar ekan, eski operatorning operatorlik maqomi qolmaydi. Ammo, applikatorlar soni gap tarkibida kamaymaydi. Endi MSQning ikkinchi komponenti sintaktik derivatsiyasi jarayoniga nazar tashlasak:

II.

1) *Chiqishdi* – tub struktura: V;

2) *Ular chiqishdi* – tayanch struktura: N+V;

3) *Ular beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura: N+X<sub>1</sub>+V (operator oldiga);

4) *Ular arkdagi beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura: N+X<sub>2</sub>+V (operator – -dagi);

5) *Ular ikkovlashib arkdagi beklar oldiga chiqishdi* – hosila struktura: N+X<sub>3</sub>+V (operator – -ib).

MSQning ikkinchi komponenti besh bosqichda amalga oshadi. Gap tarkibiga yangi applikatorlar qo'shilgan sari uning shakli kengayib boradi. Ko'rinadiki, umumiy sintaktik strukturaning mazmun butunligi faqat tayanch strukturaga bog'liq, unga yangidan qo'shilayotgan unsurlar mazmuniy jihatdan ikkinchi darajali, deyish noo'rindir<sup>26</sup>.

MSQ sintaktik strukturasi umumiy olinsa, MSQ tarkibiga bog'lanayotgan har bir qism (yangi komponent) applikator sanalishi mumkin.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi "**Applikativ model va matn derivatsiyasi**" deb nomlanadi. Mazkur bobning birinchi fasli ("Matn kategoriyalari") da matn va uni yuzaga chiqaruvchi komponentlarning derivatsion xususiyatlari yoritilgan.

Ravshanki, matn tilshunosligi muammolari fanimiz taraqqiyotining hozirgi davrida o'ta dolzarb sanaladi, zotan, endigina ilmiy asoslangan nutq lingvistikasining asosiy zalvori matn tilshunosligi zimmasiga tushishi tabiiydir.

Bugungi kun tilshunosligida matn lingvistikasiga oid ilmiy paradigmalarning yuzaga kelishi natijasida matn lingvistikasi muammolari bilan bog'liq qator ilmiy-nazariy tadqiqotlar yaratildi. Mazkur ishlarda matnning turli xil ko'rinishlari, shu jumladan, mikro va makromatn shakllarining lingvistik tabiati, matnning derivatsion xususiyatlari keng o'rganildi. Chunki, derivatsiya tushunchasi birinchi galda shakllanish ma'nosi bilan uzviy bog'liqdir.

Matnning lingvistik tahlilida uning o'ziga xos xususiyatlari va kategoriyalarini farqlash maqsadga muvofiqdir. Chunki matnni shakllantiruvchi kategoriyalar uning xususiyatlaridan farqli o'laroq, mavhum, umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'ladi.

---

<sup>26</sup> Кацнелсон С.Д. Общее и типологическое языкознание. – Л., 1986. – С. 133.

Matn kategoriyalari maydonli strukturaga ega bo'lib, ular ko'p darajali matn birliklari bilan ifodalanadi.

Matnning kommunikativ tabiati va pragmatik funksiyalarni hisobga olgan holda, matn ichida o'zgaruvchanlik kategoriyasining mavjudligini tan olish kerak. Uning konseptual mazmuniga qiziqishi doimiy ravishda oshib boradi.

Matnda ikki turdagi o'zgaruvchanlik mavjud bo'ladi. Birinchidan, matnlardagi o'zgaruvchanlik turli xil nutqlarda ishlatiladigan matnlarning har xil turlarini (kichik turlarini) shakllantirishga olib keladi: rasmiy, ilmiy, ilmiy-texnik, publitsistik, huquqiy, siyosiy, maishiy va boshqalar. Bunday holda, kommunikativ-pragmatik o'zgaruvchanlikning birinchi turi – “tashqi” o'zgaruvchanlik taqdim etiladi, buning natijasida matnlarning turli xil turlari (kichik turlari) yaratiladi va farqlanadi. Bu jamiyatdagi kommunikantlarning og'zaki xatti-harakatlarining modellari sanaladi.

Kommunikativ-pragmatik o'zgaruvchanlikning ikkinchi turi “ichki” o'zgaruvchanlik hisoblanadi, chunki u matnlarning o'zida namoyon bo'ladi. U har xil lingvistik darajadagi vositalar va ekstralingvistik hodisalar orqali yuzaga chiqadi. Ichki o'zgaruvchanlik matnda ifodalangan axborotning har xil ko'rinishini o'z ichiga oladi.

Matnning xususiyatlari va kategoriyalarining universal ro'yxatini tuzish juda qiyin, chunki matnlarning xilma-xilligi cheksizdir, shuning uchun ularning xususiyatlari ham har xil. Albatta, ba'zi kategoriyalar barcha matnlarga xosdir. Bunday kategoriyalarga bog'lanishlilik kategoriyasi kiradi. Bu borada esa bog'lanishlilik matnning yaxlitlik kategoriyasi bilan bir mavqega egami, yoki uning segmentlash kategoriyasi bilan bir darajada turadimi, yoxud u alohida makrokategoriya sanaladimi, degan masala alohida o'rin tutadi.

Shu narsa xarakterliki, matnning har qanday turi ham bog'lanishli nutq mahsuli sanaladi. Bu o'rinda tilning har bir leksik-morfologik vositalari muhim omil sifatida xizmat qiladi. Matnning grammatik kategoriyalari ham matn derivatsiyasi jarayonida muhim rol o'ynaydi:

1. Antroposentriklik va lokal-temporallik kategoriyalari;
2. Konservativlik va informativlik kategoriyalari;
3. Sistemlilik va diskretlilik kategoriyalari;
4. Tugallanganlik va modallik kategoriyalari;
5. Bog'lanishlilik kategoriyasi.

Matn kategoriyalari bir-biri bilan uzviy aloqadorlikda yuzaga chiqadi. Matn komponentlarini sintaktik-semantik jihatdan bog'lab keluvchi leksik-morfologik vositalar matn tarkibida qo'llanganda derivatsion faollik kasb etadi va applikator vazifasida kelib, funksional qiymatga ega bo'ladi.

Bobning ikkinchi fasli “Applikativ model va abzas derivatsiyasi” deb nomlanib, mikro va makromatnlarda abzas derivatsiyasining o'ziga xos xususiyatlari yoritilgan.

Bizga ma'lumki, gapning sintaktik derivatsiyasi operandlari so'z qolipida, murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiya operandlari esa gap qolipida keladi. Ammo abzas derivatsiyasi operandlari mustaqil gap, murakkab sintaktik qurilma, ilovali qurilma va h.k. kabi nutq birliklari qolipida kelishi bilan alohida ajralib turadi.

Abzas sintaktik derivatsiyasining operandi vazifasida ilovali qurilmalar kelganida ular birinchi galda o‘zlari ilovasi bo‘lib kelayotgan yetakchi gap bilan, so‘ngra abzasning umumiy strukturasi bilan pog‘onalik orqali sintaktik strukturaga kirishadi. Gapning sintaktik derivatsiyasi muayyan tub strukturaga asoslangan tayanch struktura tushunchasi bilan bog‘lanadi. Chunki, tayanch strukturaga operator qo‘shilishi jarayonida hosila (derivat) struktura shakllanadi. Murakkab sintaktik qurilmalar esa, doimiy ravishda hosila strukturani taqozo etadi va mazkur maqom ularga operator (real qo‘llanilgan yoki nol ifodali bo‘lishidan qat’i nazar) vositasida berilganligi ko‘rinib turadi. Biroq, abzas derivatsiyasi jarayoni boshqacha tamoyillarga asoslanadi.

Abzas makromatn tarzida o‘rganilganda ham uning sintaktik derivatsiyasi asoslanuvchi ma’lum bir tayanch struktura bo‘ladi. Biroq, bunday strukturani abzas operandlari tarkibida belgilashga to‘g‘ri keladi. Abzas derivatsiyasining tayanch strukturasi tarzida belgilanadigan sintaktik struktura o‘z mazmuniy salmog‘iga ko‘ra abzas komponentlarining barchasiga daxldor bo‘lmog‘i lozim. Ana shu jihati bilan mazkur struktura abzas komponentlarining sintaktik shakllanishiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi.

Shu narsa xarakterliki, abzas derivatsiyasining tayanch strukturasi vazifasida aksariyat hollarda uning birinchi komponenti keladi. Ravshanki, derivatsiyaning har qanday turi ham operatorsiz ro‘y bermaydi. Demak, matn derivatsiyasi, jumladan, abzas derivatsiyasi ham muayyan operator vositasida voqelanadi. Biroq, bu o‘rinda operator tanlash imkoniyati bo‘lmaydi. Chunki, abzas derivatsiyasi tamoyillarini odatda, og‘zaki nutq materiali asosida emas, balki tayyor holdagi yozma nutq materiali asosida o‘rganiladi. Bunday vaziyatda, albatta operatorlar tanlash haqida so‘z yuritish qiyin. Albatta, operator derivatsiyaning har qanday turini ham shakllantiruvchi eng faol vositasi sanaladi. Uning mazkur faolligi abzas derivatsiyasida ham to‘liq namoyon bo‘ladi:

*Opam Karomat - hali paranjisiz yosh qiz - maktabdan qaytdi. Men uning mahallamizdagi maktabini - otin bibining uyini yaxshi bilaman. Bir kun opamga ergashib borganman. Ayyonda ancha qizlar - katta-kichik aralash qator tizilib o‘tirib, chuvvos bilan kitoblar o‘qishadi (Oybek. “Bolalik”).*

Mazkur abzas derivatsiyasining operatori *opam* so‘zi ekanligi izoh talab qilmaydi. Zotan, bu so‘zni yoki uning o‘rnida kelgan sinonimik vositalarni abzas operandlarining har birida kuzatiladi. Ana shu bois u derivatsiya operatori darajasiga ko‘tarila olgan. Biroq, har qanday derivat operatori yagona bo‘ladi. Hatto, ikki yoki undan ortiq tarkibli bo‘lgan dublooperator ham yaxlitligicha bir operator vazifasini bajaradi. Masala tavsifiga ana shu nuqtayi nazardan yondashadigan bo‘lsak, berilgan abzas derivatsiyasida ham faqat dastlab qo‘llanilgan *opam* so‘zi derivatsiya operatori vazifasini bajaradi, keyingi operandlarda qo‘llanilgan uning sinonimik ifodalari yoki o‘zining takroriy qo‘llanishi operator bo‘la olmaydi. Chunki, ular operatorning keyingi operandlar tarkibidagi aksini taqozo etadi.

To‘rtinchi bobning uchinchi fasli “*Applikativ model va matn segmentlarining bog‘lanishi*” deb nomlanadi. Matn lingvistikasiga bag‘ishlangan adabiyotlarda matn shakllanishi mexanizmini tushunish uchun matn kogeziyasini, matn komponentlari

bog‘lanishining barcha turlarini o‘rganish zarurati tug‘iladi. Matn bu turli yo‘llar bilan uning umumiy kogeziyasi asosida bog‘langan til birliklarining, formalarining kontiniumidir. Matn kogeziyasini o‘rganish aspektlari sifatida tilshunoslar abzaslar bog‘lanishini, ya’ni abzasning ichki komponentlari bog‘lanishini hamda abzaslararo bog‘lanishni e’tiborga oladilar. Bunday qarashlar bir qator ishlarda ko‘zga tashlanadi (T.I.Gordiyenko, L.N.Mamayeva, V.N.Skibo, I.M.Novitsskaya, V.P.Nikolayeva va boshqalar<sup>27</sup>). Ammo shunday bo‘lsa-da, abzaslararo bog‘lanish hodisasi yuzasidan yagona bir fikrga kelingani yo‘q.

Shuni ham aytish joizki, abzaslararo bog‘lanishda har bir abzas makromatnning komponenti sifatida kelib, uning segmenti sanaladi. Zotan, mazkur abzaslarning tarkibiy qismlari, boshqacha aytganda sintaktik derivatsiya operandlari mustaqil abzaslar qolipidagi sintaktik strukturalarni taqozo etadi. Shu sababdan abzas nutqning alohida birligi maqomiga egadir. Bu esa, o‘z navbatida unga nutq birligi sathi maqomini beradi. Ravshanki, sath tushunchasi til hodisalarining diskret xarakteri bilan uzviy bog‘liq<sup>28</sup>. Shundan kelib chiqib, abzaslarni ham kezi kelganda makro matnning segmentlari sifatida, ularning paradigmasini esa mazkur segmentlarning majmuasini tashkil etuvchi vosita sifatida o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

Abzas komponentlarining har birida til birliklarining distributiv munosabati ustuvor ahamiyat kasb etsa, ular bilan abzas o‘rtasida esa integrativ munosabat muhim mavqega ega<sup>29</sup>. Ammo, bu orqali integrativ munosabat matn sintaktik strukturasining komponentlari – mustaqil abzaslarda kuzatilmaydi degan xulosaga kelib bo‘lmaydi. Zotan, mustaqil abzaslarda gaplar paradigmasi kuzatilar ekan, unda ham integrativ munosabat mavjudligini inkor etib bo‘lmaydi.

Umuman, abzaslararo munosabatda har bir abzasning o‘zi derivatsiya operandi bo‘lishi bilan birga, alohida olinganda mustaqil derivatni tashkil qilishi izoh talab qilmaydi. Bu vaziyatda abzaslararo munosabat va mustaqil abzas komponentlari operatorlari bir-biridan farq qilishi ham tabiiydir. Shu bilan birga, applikativ model nuqtayi nazardan oladigan bo‘lsak, ularning applikatorlari ham bir-biridan farq qiladi. Masalan:

*Hamida kanizga ergashib tolol tomon borar ekan, ipak durra bilan tang‘ib chambar qilingan ikki o‘rim uzun sochlarini yelkasiga tushirdi. Durraning uchi bilan qoshi ustidagi ter rezalarini artdi.*

*U tolol zinapoyasidan ko‘tarilayotganda Xonzoda begim o‘rnidan turib, unga tomon yurdi. Hamida bonu uch-to‘rt qadam narida to‘xtab kelinlarday egilib ta‘zim qildi. Xonzoda begim unga kulimsirab yaqinlashdi-da, qo‘l berdi. Odatga binoan, Hamida bonu uning qo‘lini ikki qo‘llab oldi-yu, bir tizzasini yerga tirab, bayroqni*

---

<sup>27</sup> Гордиенко Т.И. Абзац в профессиональной книжной речи. // Автореферат канд. дис. – М., 1985; Мамаева Н.Л. Абзац в функционально-стилистическом аспекте (на материале английского языка) //: Автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1981. – С.27; Скибо В.Н. Прагматическая ориентированность текста и передача ее в переводе. – М., 1982, вып. 193 с. И2И-И34.; Новицкая И.М. О двух типах структур связного текста. В кн.: Информационные вопросы семиотики, лингвистики и автоматического перевода. – М., 1971, вып. 2, – С. 61-67. Николаева Т.М. Лингвистика текста : Современное состояние и перспективы. В кн.: Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1978, вып. 8, – С. 5-39.

<sup>28</sup> Бенвенист Э. Общая лингвистика. – М.: Прогресс, 1974. – С. 428.

<sup>29</sup> Benvenist E. Ko‘rsatilgan manba. – B. 134.

*o'pgandek ixlos bilan o'pdi. Qiz boshini eggan paytda yo'g'on qora socharining biri yelkasidan sirg'alib ko'ragiga tushdi. Xonzoda begim ikkinchi qo'li bilan uni belidan quchib sekin tikka turgi'zdi va zarbof ko'rpachaga taklif qildi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).*

Ushbu matn parchasi ikki abzasdan tashkil topgan bo'lib, mazkur abzaslar bir-biri bilan kontakt bog'lanish asosida birikkan. Ikkinchi abzas birinchi abzasning mazmuniy davomi hisoblanadi. Abzaslar semantik ma'nosi markazida esa *Hamida bonu* so'zi kelib, mazkur so'z makromatn mazmuni doirasida freym sifatida faollashgan. Lekin, shunday bo'lsa-da, abzaslararo bog'lanishda sintaktik derivatsiya operatori sifatida *Hamida bonu* so'zi emas, balki, ikkinchi abzas boshida kelgan *U* olmoshi olinadi. Chunki, aynan ana shu so'z ikki abzasni bir-biriga semantik va sintaktik jihatdan bog'lab, applikator vazifasini bajargan.

Agar har bir abzas makromatn tarkibidan chiqarilib, alohida tahlil qilinsa, *Hamida bonu* so'zi har ikkala abzasning operatori maqomida keladi. Biroq, bu bilan har doim ham birinchi abzasda operator maqomidagi so'z ikkinchi abzasda ham operator bo'lib keladi degan fikrga bormaslik kerak. Bunaqa vaziyat faqat kontakt bog'lanishda bo'lishi mumkin. Agar abzaslar o'zaro distant bog'lansa, ikki abzas alohida tahlil qilinganda ikki xil operatorga, demakki, ikki xil applikatorga tayanadi. Ammo, abzaslararo bog'lanishning applikator bitta bo'ladi. Masalan:

*Bog' juda orasta, yo'laklarga oltinrang qumlar solingan, marmar ariqlardan tiniq suvlar jildirab oqadi. Chorchamanlarda mamlakatning eng noyob gullari muattar hid taratib ochilib turibdi.*

*Lekin bu hammasi Xonzoda begimga juda omonat tuyuladi. Inisi Bobur qonli janglarda barpo etib ketgan ulkan davlat hanuzgacha hind yeriga teran ildiz otolgan emas. Fotihlik qilichining yaralari tezda tuzalmas ekan. Mamlakatning turli o'lkalarida Humoyun va uning inilariga qarshi ketma-ket isyonlar bo'lmoqda. Shu xatarli vaziyatda og'a-inilar inoq bo'lish o'rniga bir-birlari bilan chaplashib, hokimiyat talashadilar. Xonzoda begim ularni murosaga keltirolmay qiynaladi. Hozir bog'da o'ltirgan paytida ham, butun xayoli og'a-inilarning nizolaridan beri kelmaydi (P.Qodirov. Avlodlar dovoni).*

Mazkur misolda ikki abzas bir-biri bilan distant (radial) munosabatda bog'langan. Zero, har bir abzasning semantik markazida ikki xil so'z turganini sezish qiyin emas. Birinchi abzasda *bog'*, ikkinchisida esa *nizolar* so'zi freym vazifasida kelgan. Bu esa, mazkur so'zlar abzas sintaktik derivatsiyasining operatori maqomida kelganidan dalolat beradi. Applikativ model nuqtayi nazaridan ham abzas komponentlarini bog'lab turuvchi applikatorlar aynan ana shu ikki so'z hisoblanadi. Ammo masalaga abzaslararo bog'lanishni hisobga olib yondashilsa, ikki abzasni bir-biriga sintaktik-semantik jihatdan bog'lab turgan vosita **lekin** zidlov bog'lovchisi sanaladi. Bu bog'lovchi komponenti ikki abzasdan iborat bo'lgan makromatn sintaktik derivatsiyasining operatori vazifasida kelgan. Bir-biriga mazmuniy va sintaktik jihatdan bog'lanib kelgan ikki abzasning applikator vazifasini ham **lekin** bog'lovchisi bajargan.

Shunisi xarakterliki, hozirgacha applikativ modelning ta'sir kuchi faqat bir gap doirasida o'rganilib kelingan. Biroq faktik til material talqini shuni ko'rsatadiki,

applikativ model o'ziga xos ifoda imkoniyatlari, xususan, jumllararo va abzaslararo funksional jihatlari bilan zamonaviy tilshunoslik rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

## XULOSA

Applikativ model va derivatsion jarayon tahlili bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tilshunoslikida yangi ilmiy paradigmalarning yuzaga kelishi til va nutq dixotomiyasi tahliliga yangicha yondashish zaruratini belgiladi. Tilning fonetik, leksik, grammatik hamda sistem-struktur sathlari keng o'rganilib, til tabiatini anglash va uning amaliy voqelanishini tushunishga e'tibor kuchaydi. Shuningdek, applikativ model va uning ifoda imkoniyatlari, leksik birliklarning derivatsion xususiyatlarini lingvistik aspektda tadqiq etish zamonaviy tilshunoslik oldidagi muhim masalaga aylandi.

2. Applikativ modelning yaratuvchanlik kuchi sodda obyektlardan murakkab obyektlarning shakllanishida namoyon bo'ladi. Aynan shu jihati uni mustaqil lingvistik nazariya tarzida belgilashga imkon yaratadi. Applikativ modelning muayyan tillar materialida qo'llanishi har bir tilning ichki qonun-qoidalariga, ularda qo'llanuvchi applikatorlar xarakteriga bog'liq bo'ladi. Jumladan, agglyutinatív tillarda *affikslar*, *ko'makchi* va *bog'lovchilar* muhim ahamiyat kasb etsa, analitik tillarda *fe'l shakllari*, *bog'lovchilar*, *predloglar*, *yordamchi fe'llar* kabi morfologik vositalar muhim hisoblanadi.

3. Applikativ model ham transformatsiya kabi yaratuvchi kuchga egaligi bilan alohida ajralib turadi. Biroq u o'zining lingvistik maqomiga ko'ra transformatsiyadan farqlanadi. Ular o'rtasidagi asosiy farq transformatsiyada hosila strukturalar o'rtasida ma'no mushtarakligi mavjudligida, applikativ model vositasida shakllangan hosila strukturalar o'rtasida esa ma'no jihatdan farq bo'lishida ko'rinadi.

4. Applikativ model qo'llanilgan har qanday obyekt derivatsiya mahsulini taqozo etadi. Jumladan, so'z yasalihi ham ana shunday xususiyat kasb etadi. Hosila komponentlarining soni ikkiga teng bo'lganda derivatsiyaning birinchi bosqichi, undan ortiq bo'lganda esa ikkinchi, uchinchi va keyingi bosqichlar shakllanadi va har bir bosqich applikativ modelga asoslanadi.

5. Yasama so'zlar derivatsiyasida derivatsion jarayonda bir paytda ikkita operator faollik ko'rsata olmaydi. Bu holat faqat murakkab sintaktik qurilmalar yoki katta hajmdagi matnlar (makromatnlar) derivatsiyasida ro'y berishi mumkin. Yasama so'zlar, sodda gap yoki so'z birikmalari zanjiri doirasida esa maydonga yangi operator chiqishi bilan, eski operator o'z o'rinini yangisiga bo'shatib beradi. Bu jarayonda bir paytning o'zida bir nechta applikatorlar bog'lanishi mumkin.

6. So'z yasalihi derivatsion jarayon doirasida vujudga keladi va shu bois applikativ model sintaktik va leksik derivatsiya nazariyasining asosiy usullaridan biri sifatida o'rganiladi. Affiksatsiya usuli bilan yasalgan so'zlardan farqli o'laroq, qo'shma so'zlarda relyatorlar (yoki applikatorlar) qo'shimchalar emas, balki

mustaqil soʻzlarni tashkil qiladi. Bu jarayonda asos bazaga applikatorlar sifatida bir nechta qoʻshimchalar oʻrniga bir nechta soʻzlar bogʻlanadi.

7. Soʻz birikmasi sitrukturasining applikatorlar birikishi yordamida kengayishi soʻz birikmasi sintaktik derivatsiyasining “hosiladan hosila” tarzidagi shakllarini yuzaga keltiradi. Chunki sintaktik derivatsiya jarayonida soʻz birikmasining tobe va hokim komponentlariga aloqador boʻsh oʻrinlar toʻldiriladi.

8. Gapning sintaktik shakli kengayishi derivatsion jarayon doirasida vujudga keladi. Sintaktik derivatsiya hodisasi, asosan, ikki usul bilan: transformatsion va gap shaklining kengayishi usullari bilan voqelanadi.

9. Affiks applikatorlar muayyan soʻzga qoʻshilgach, gap tarkibiga ikkinchi soʻzning kiritilishi uchun imkoniyat yaratgandagina gap sintaktik shaklining kengayishi uchun xizmat qila oladi, aks holda esa u soʻz kengaytiruvchisi vazifasidagi applikator maqomini oladi.

10. MSQ qismlarini bir-biriga bogʻlovchi applikatorlar har doim ham belgili holatda ifodalanmaydi. Garchi bogʻlovchi applikatorlar qoʻllanilmagan boʻlsa-da, mazmuniy jihatdan MSQlar sathida ularning oʻrni har doim sezilib turadi. Derivatsion nuqtayi nazardan ham shu fikrni bildirish mumkin. Zero, applikatorlar MSQ derivatsiyasida operator maqomida kelar ekan, derivatsion jarayonda operator mavjud boʻlmaydi degani emas. Chunki operator boʻlmasa, derivatsiya ham boʻlmaydi. Demak, ularning fakultativlik belgisi semantik jihatdan oʻz kuchini yoʻqotadi. Bunda fakultativlik faqat sintaktik jihatdan ahamiyat kasb etadi.

11. Bogʻlovchisiz shakllangan MSQlar ham teng komponentli boʻladi. Ularda ishtirok etayotgan har bir gap MSQ sintaktik derivatsiyasining operandi sanaladi. Bunday vaziyatda derivatsiya operatori distributiv munosabatni tashkil etayotgan ekstralingvistik omil hisoblanadi. Bogʻlovchisiz shakllangan murakkab qurilmalarning sintaktik maqomi mavjudligini inkor etib boʻlmaydi. Chunki bogʻlovchisiz MSQlarda bogʻlovchi vositalar yaqqol ishtirok etmasa-da, ularning qismlari oʻzaro turli leksik-morfologik vositalar: *leksik takrorlar*, *sinonimik vositalar*, *olmoshlar* va boshqa birliklar orqali bogʻlanadi. Bunday vaziyatda, bu unsurlar sintaktik va semantik jihatdan muhim ahamiyat kasb etib, MSQ komponentlarini birikishiga asos boʻluvchi applikatorlar vazifasida keladi.

12. Kontekstda abzas sintaktik hodisani yuzaga chiqaradi. Matnda birdan ortiq mustaqil gaplarning yoki murakkab sintaktik qurilmalarning oʻzaro sintaktik munosabati abzaslar ifodasida koʻrinadi. Gapning sintaktik derivatsiyasi operandlari soʻz qolipida, murakkab sintaktik qurilmalar derivatsiya operandlari esa gap qolipida keladi. Ammo abzas derivatsiyasi operandlari mustaqil gap, murakkab sintaktik qurilma, ilovali qurilma va boshqa shu kabi nutq birliklari qolipida kelishi bilan xarakterlanadi.

13. Abzaslararo munosabatda har bir abzasning oʻzi derivatsiya operandi boʻlishi bilan birga, alohida olinganda mustaqil derivat hisoblanadi. Bu jarayonda abzaslararo munosabat va mustaqil abzas komponentlari hamda ularning applikatorlari bir-biridan farq qiladi.

14. Til tizimida sintaktik qurilmalar shakli kengayishi va ularning derivatsion xususiyatlari masalasi tadqiqida applikativ modeldan foydalanish, shuningdek,

applikativ modelning transformatsion model bilan kesishishi va til sistemasi birliklarining nutqqa ko‘chirilishini ta’minlovchi mexanizmning lingvistik amaliyoti bugungi kun tilshunosligining sifat bosqichiga ko‘tarilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSC.03/30.12.2019.FIL.05.02  
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ  
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

---

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ  
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАНДАРОВ РУСТАМ ДУСЁРОВИЧ**

**АППЛИКАТИВНАЯ МОДЕЛЬ И ДЕРИВАЦИОННЫЙ ПРОЦЕСС**

**10.00.11 – Теория языка. Прикладная и компьютерная лингвистика**

**АВТОРЕФЕРАТ**  
диссертации на соискание ученой степени  
доктора **ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ** наук (DSc)

**Фергана – 2025**

Тема докторской диссертации (DSc), зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии Республики Узбекистан под номером B2023.3DSc/Fil672.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на сайте Научного совета и на информационно-образовательном портале «ZiyoNET» ([www.ziyo.net](http://www.ziyo.net)).

**Научный руководитель:** Турниязова Шахноза Нигматовна  
доктор филологических наук (DSc), доцент

**Официальные оппоненты:** Розикова Гулбахор Зайлобиддиновна  
доктор филологических наук, профессор

Раупова Лайло Рахимовна  
доктор филологических наук, профессор

Зияев Аватжон Ихтиёрвич  
доктор филологических наук, профессор

**Ведущая организация:** Андижанский государственный институт  
иностранных языков

Защита диссертации состоится « 5 » 04 2025 года в 8<sup>00</sup> часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Phil.05.02 при Ферганском государственном университете по адресу: 100151, город Фергана, улица Маргяновий, 105. Тел: (+99873) 244-57-82; электронная почта: [fardu\\_info@gmail.ru](mailto:fardu_info@gmail.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирован под номером 479). Адрес: г. Фергана, улица Мураббийлар, 19, тел.: (+99873)244-44-94.


Автореферат диссертации разослан « 17 » 03 2025 года.

(Протокол рассылки № 14 от « 17 » 03 2025 года).



  
С.М.Муминов  
Председатель Научного совета по  
присуждению ученых степеней, доктор  
филологических наук, профессор

  
М.Т.Зокиров  
ученый секретарь Научного совета по  
присуждению ученых степеней, кандидат  
филологических наук, профессор

  
М.Х.Хакимов  
Председатель научного семинара при Научном  
совете по присуждению ученых степеней,  
доктор филологических наук, профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** В мировой лингвистической науке проводятся систематические исследования социальных особенностей речи. Языкознание поднимается на новый качественный уровень, появляются новые исследования, направленные на анализ дихотомии «язык-речь», фонетического, лексического, грамматического и системно-структурного уровней языка. Развитие понимания природы языка и практической ее реализации находит свое отражение в таких новых научных направлениях, как прагмалингвистика, социолингвистика, когнитивная лингвистика, психолингвистика, нейролингвистика. Большое внимание уделяется поиску решений практических задач путем анализа особенностей прагматического содержания.

В этой связи можно утверждать, что в лингвистике в достаточной степени освещены вопросы деривации, в частности, системно-структурных и деривационных особенностей языковых единиц, теории когнитивно-прагматических характеристик большого и малого синтаксиса, что служит теоретической базой для дальнейших исследований. Вместе с тем, нельзя не отметить, до сего дня появляются работы, посвященные словарному значению самого научного термина, таким понятиям, как оператор, операнд и дериват, универсальности лексических, синтаксических и семантических принципов деривации, откуда можно сделать вывод, что теоретические аспекты данной проблемы далеко не полностью обоснованы.

В настоящее время в узбекском языкознании приобретают все большее значение исследования, проводимые по изучению проблем системно-структурной лингвистики. Хотя существуют работы, выполненные на основе таких моделей, как трансформационная, дистрибутивная и непосредственно составляющих, однако не наблюдается исследований, основанных на трансформационной модели, имеющей большой структурирующий потенциал, и аппликативной модели, обладающей достаточно выраженными синергетическими возможностями.

Вопросы развития лингвистической науки в нашей стране находится на уровне государственной политики. Как отметил Глава нашего государства, родной язык – неиссякаемый источник нашей национальной духовности. Поэтому оказать ему заслуженное уважение и почет не только наша задача, но и наш священный человеческий долг<sup>30</sup>.

Это требует от ученых-лингвистов расширения рамок и углубления тематики исследований в этом направлении. Поэтому исследование расширения формы синтаксических средств и их деривационных свойств, а также механизмов, обеспечивающих преобразование единиц языковой системы в единицы речи (в частности, в рамках настоящей диссертационной

---

<sup>30</sup> Mirziyoyev Sh.M. Milliy o'zligimiz va mustaqil davlatchiligimiz timsoli // O'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganligining o'ttiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutq // Xalq so'zi. – Toshkent, 2019 yil 22 oktyabr. - № 218. – B. 1-4

работы - пересечение аппликативной модели с трансформационной моделью) имеет важное значение для дальнейшего развития отечественной языковедческой науки.

Настоящая диссертация служит выполнению задач, поставленных в указах Первого Президента Республики Узбекистан от 13 мая 2016 года № УП-4797 «Об организации Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы имени Алишера Навои», от 30 июня 2020 г. № УП-6017 «О мерах по коренному реформированию и поднятию на новый уровень государственной молодежной политики в Республике Узбекистан», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 31 декабря 2020 г. № ПП-4939 «О мерах по кардинальному совершенствованию системы оценки квалификаций и обеспечению рынка труда квалифицированными кадрами», указах от 28 января 2022 г. № УП-60 «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 8 октября 2019 г. № УП-5847 «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», от 6 июля 2022 № УП-165 «Об утверждении Стратегии инновационного развития Республики Узбекистан на 2022-2026 годы», Постановлении Президента Республики Узбекистан от 21 июня 2022 года № ПП-289 «О мерах по повышению качества педагогического образования и дальнейшему развитию деятельности высших образовательных учреждений по подготовке педагогических кадров» и нормативно-правовых документах, имеющих отношение к данной сфере.

**Соответствие диссертации приоритетам развития науки и техники в республике.** Диссертация выполнена в соответствии с приоритетным направлением развития науки и техники в Республике Узбекистан: 1. «Формирование системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства и пути их реализации».

**Обзор зарубежных исследований по теме диссертации.**

Исследования по вопросам расширения формы синтаксических конструкций на основе аппликативной модели ведутся в настоящее время в ряде научных учреждений мира, в их числе Амстердамский университет, Лейденский университет (Нидерланды), Пенсильванский университет, Колумбийский университет, Калифорнийский университет, Гарвардский университет (США), МГУ, СПбГУ, Московский институт востоковедения, Ростовский университет, Московский городской педагогический институт (Россия), Лейпцигский университет, Университет Гумбольдта (Германия), Языковой центр Оксфордского университета (Великобритания), Женевский университет (Швейцария), Сорбонна Колледж де Франс (Франция), Токийский университет (Япония), Варшавский университет (Польша), а также Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН РУз, Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы им. имени Алишера Навои (Узбекистан).

По направлению темы диссертации получены следующие научные результаты: выявлены формально-структурные аспекты синтаксических конструкций и они проанализированы с трансформационной точки зрения (Гарвардский университет, США); изучены аспекты формирования генеративной грамматики (МГУ, Россия); изучены вопросы синтаксической деривации и трансформации внутри элементарного предложения (Карловский университет, Чехия), обоснован лингвистический статус абзаца (Токийский университет, Япония); с формально-функциональной точки зрения изучен вопрос расширения синтаксической формы предложения (Самаркандский государственный университет, Самаркандский государственный институт иностранных языков).

В мировой лингвистике проводятся научные исследования по ряду вопросов, связанных с практическим применением языковой системы, постановкой лингвистических проблем с системно-структурной и когнитивно-прагматической точек зрения, включая следующие приоритетные направления: описание основ передачи единиц языковой системы в речь в рамках системно-структурных проблем синтаксических конструкций; раскрытие общих и различных сторон больших и малых синтаксических конструкций; обоснование особенностей сегментации абзаца с учетом его компонентов; раскрытие роли человеческого фактора в освещении языковых особенностей больших и малых синтаксических конструкций с когнитивно-прагматической точки зрения; выявление синтаксической связи компонентов сложных синтаксических конструкций в словообразовательном аспекте.

**Уровень изученности проблемы.** Термин *дериватология* был принят в 1981 году в Пермском университете на научной конференции «Теоретические проблемы дериватологии». Однако до этого вопрос о структуре словообразования был освещен польским лингвистом Ежи Куриловичем в его работе «*Derivation lexicale et derivation syntaxique*» в 1936 году<sup>31</sup>. Но в общем языкознании этой работе многие годы не придавалось серьезного значения. Труд Ежи Куриловича был переведен на русский язык лишь в 1962 году под названием «Деривация лексическая и деривация синтаксическая», после чего в русском языкознании резко возрос интерес к этому вопросу. В качестве доказательства можно привести работы следующих учёных, вышедшие одна за другой: Мурзин Л., Шарина О.<sup>32</sup>, Кацнельсон С.<sup>33</sup>, Е. Кубрякова<sup>34</sup>,

---

<sup>31</sup> См: Kurilowicz J. *Derivation lexicale et derivation syntaxique*. – BSL, 1936.

